

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

*Qo‘lyozma huquqida*

*UDK- \_\_\_\_\_*

**ISMATOV SOBIRJON RAXIMQULOVICH**

**BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI TA‘LIMIDA O‘QUVCHILARNING  
IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH**

**Mutaxassislik: 5A111701- Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(boshlang‘ich ta‘lim)**

Magistr akademik darajasini olishi uchun yozilgan

**DISSERTATSIYASI**

**Ilmiy rahbar:**

\_\_\_\_\_

(imzo)

**A.R.Hamroyevyev**

p.f.n. dotsent

**BUXORO – 2018**

Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ch ta'lim  
fakulteti «Boshlang'ch ta'lim kafedrasida» bajarilgan

Ilmiy rahbar:

\_\_\_\_\_

(imzo)

\_\_\_\_\_

(Ilmiy darajasi va unvoni, ism-sharifi)

Rasmiy opponet:

\_\_\_\_\_

(imzo)

\_\_\_\_\_

(Ilmiy darajasi va unvoni, ism-sharifi)

Kafedra mudiri:

\_\_\_\_\_

(imzo)

\_\_\_\_\_

(Ilmiy darajasi va unvoni, ism-sharifi)

Magistratura bo'limi boshlig'i:

\_\_\_\_\_

(imzo)

\_\_\_\_\_

(Ilmiy darajasi va unvoni, ism-sharifi)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM  
VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet: Maktabgacha va boshlang‘ch ta’lim fakulteti

Kafedra: Boshlang‘ch ta’lim kafedrası

O‘quv yili: 2017-2018

Magistratura talabasi: Ismatov.S.R

Ilmiy rahbar: p.f.n, dotsent Hamroyev.A.R

Mutaxassisligi: 5A111701-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(boshlang‘ich ta’lim)

BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY  
QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi: Respublikamizda mustaqillik yillarining dastlabki yillaridanoq har tomonlama etuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor qaratilgan edi. Hozirgi davrga kelib iqtisodiyotning barcha sohalaridagi kabi ta’lim tizimida ham amalga oshirilgan islohotlar o’zining ijobiy natijasini ko’rsatmoqda. Ta’lim tizimini takomillashtirish uzluksiz davom etmoqda.

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida ta’lim oluvchilarni ma’naviy etuk va jahon andozalari talablariga javob bera oladigan, mustaqil bilim olish, o’rganish va ijodiy ishlash qobiliyatiga ega, kelajakda kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qiladigan yuksak ma’naviyatli shaxs qilib tayyorlash oliy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifalar albatta pedagoglar, murabbiylar, ota-onalar oldiga yuksak masuliyatni qo’yadi.

Magistrlik dissertatsiyasining o’rganilganlik darajasi: Ishimizning nazariy g’oyalarini ishlab chiqishda boshlang‘ich ta’lim o’qituvchilarini tayyorlash

muammolariga qaratilgan fundamental tadqiqotlar, ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash bo'yicha olimlar, pedagoglar va metodistlar ilmiy ishlari o'rganildi.

Ilmiy asarlar va tadqiqot ishlarini o'rganish hamda tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'lim o'qituvchisini tayyorlashda o'quvchilarning mustaqil va erkin fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish muammolari etarli darajada o'rganilmagan. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining mustaqil ishlash va ijodiy faoliyatini rivojlantirish hamda faollashtirishga oid juda kam ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi: Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mazmuni va metodikasini ishlab chiqish.

Magistrlik dissertatsiyasining vazifalari:

- Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini muammolariga qaratilgan ishlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish;

- pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy va intellektual qobiliyatini rivojlantirish;

- zamonaviy pedagogikada ijod va ijodiy qobiliyat masalalari va tushunchalarini o'rganish;

- ta'lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi va ijodiy tafakkur rivojlanishining sifatlarini o'rganish;

Magistrlik dissertatsiyasining ob'ekti: Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni.

Magistrlik dissertatsiyasining predmeti: Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini tadqiq etish.

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy amaliy ahamiyati:

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan topshiriqlar ishlab chiqiladi;

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarning dars ishlanmalari va texnologik xaritalari ishlab chiqilib amaliyotda joriy etiladi;

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyasi ta'lim jarayoniga qo'llaniladi;

Magistrlik dissertatsiyasining farazi:

- Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari aniqlanganda hamda ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilganida;

- Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish metodikalari ishlab chiqilganida hamda amalda joriy etilganida;

-pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy va intellektual qobiliyati rivojlantirilganda;

- Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyasi o'rganilgand.

Magistrlik dissertatsiyasining metodlari: Ilmiy tadqiqot va ilmiy–pedagogik adabi-yotlar hamda me'yoriy, o'quv–dasturiy hujjatlarni tahlil qilish, o'quv jarayonini kuzatish, suhbat, so'rovnoma, testlar o'tkazish, reyting, ekspert ba-holash uslublari, pedagogik tajriba-sinov natijalariga matematik sta-tistik uslublaridan foydalanib ishlov berish va umumlashtirish.

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy yangiligi:

- Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammolariga qaratilgan tadqiqot ishlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va intellektual qobiliyati, ijodiy tafakkur rivojlanishi sifatlarining ahamiyati ilmiy jihatdan asoslandi;

-o`quvchilarning ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha o'qitish jarayoni modeli ishlab chiqildi, har bir komponenti mazmuni hamda mohiyati ochib berildi;

-o`quvchilarning ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha dars ishlanmalari ishlab chiqilib amalda tatbiq etildi;

- Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyasining mohiyati yoritib berildi;

Magistrlik dissertatsiyasining metodologik asosini: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Qonunlari, "Davlat ta'lim standartlari", oliy ta'limi to'g'risidagi Nizomlar va me'yoriy hujjatlar, mustaqil ishlarni tashkil etish, o'tkazish va baholash hamda ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari bo'yicha ilmiy-uslubiy ishlar va metodikalar tashkil etadi.

Magistrlik dissertatsiyasi: kirish, 3 ta bob, 6 paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED  
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**FACULTY:** Preschool and primary education

**Department:** Primary education

**Academic year:** 2017-2018

**The student of Master degree:** Hakimov.F.N

**Scientific supervisor:** d.ph.s., docent Choriyev.T.R

**Specialty:** 5A111701-The theory and methodic of education (Primary education)

**METHODICAL BASES OF ORGANIZING TEACHING MOTHER  
TONGUE WITH AUDIO AND VIDEO ELECTRONIC EQUIPMENTS**

**SUMMARY OF MASTER DEGREE DISSERTATION**

**Reasoning and actuality of the topic of master's dissertation.** The future of each nation depends on the younger generation, which is growing up today, as they are educated and educated to their full potential. Such a responsible task requires the modern teacher, especially the elementary school teachers, to increase their professional skills, understand the essence of advanced pedagogical technologies, and use them effectively in their own lessons. At the moment, the organization of advanced teaching technologies with computer technologies, and the creation of multimedia lessons on this basis is the main focus.

**Object and subject of the research.** The process of forming mother tongue education in primary school through audio and video electronic means (school No. 30, 29).

The primary class is the subject of the pedagogical and methodological substantiation of the technology of developing students' knowledge, skills and skills through multimedia content used in mother tongue textbooks. Talat Gafforova, Ergash Shodmonov, Kholida Gulyamova (mother tongue, 1st class, Tashkent-Orient 2016, p. 112), Karima Kasimova, Siddik Fuzailov, Adalat Ne'matova (Mother tongue 2, Roza Ikramova, Kholida Gulomova, Sharofat Yuldasheva, Dilorom Shodmonova (Mother tongue4, Tashkent: "Teacher", 2015,

192b): New Generation Textbooks "Mother tongue" and multimedia based on them are the main source of research.

**The purpose and tasks of the research.** Identifying of the pedagogical conditions of the use of audio and video equipment in the mother tongue in primary school, developing criteria and recommendations for the use of audio and video equipment in the process of covering the process and teaching the mother tongue are the purpose of the research.

In order to enrich the younger generation's minds with national independence ideas in modern education and to enable learners to freely function as subjects, research assignments are as follows:

1. To substantiate that the use of elective means of education in primary education is a pedagogical problem.
2. Didactic features of the use of audio and video equipment for mother tongue education are disclosed.
3. Determining the current state of use of audio and video electronic media in mother tongue education and identifying its prospects.
4. Demonstrate the content and the use of audio and video equipment for mother tongue education.
5. Determine ways to use audio and video equipment for mother tongue education.
6. Terms of use of multimedia tools in mother tongue education.
7. Criteria for improving the use of audio and video surveillance in the mother tongue education.

**Scientific novelty of the research.** Studying the didactic research of the didactic foundations of the new generation of native language textbooks created in the years of independence, the study of the content and essence of electronic means, the principles used in them, the study of the criteria used in the creation of electronic educational tools, The scientific novelty of the research is the development of scientific and methodological recommendations aimed at the perfection of the existing electronic manuals and their effectiveness.



**The main topics and assumptions of the research.** The research included theoretical and practical basics of teaching mother tongue education through audio and video electronic media, conditions of use of information and communication technologies in the modern educational process, computer linguistics and multimedia concepts, pedagogical and methodological bases of the organization of mother tongue lessons with audiovisual materials, the theme "Word and its meanings" The main objective of the research is to teach mother tongue education through video teaching materials, the role of video teaching materials in linguistic exercises, the development of oral and written vocabulary through videos and their assumptions.

**Description of the methodology used in the research.** Studying and analyzing pedagogical, psychological and methodological literature on research problem, studying content, forms, means, methods of studying in educational institutions, working paper on research topic, pedagogical experiment question and answer, math, statistical methods, pedagogical observation.

**Theoretical and practical significance of the research results.** As a result of the research, she gained theoretical knowledge about the use of electronic media, audio, video, multimedia, and the use of language in the teaching process. This, in turn, allows multimedia, audio, and video creators to enrich the knowledge of the students.

One of the latest technologies in education is the use of multimedia tools such as electronic textbooks, CDs, video cassettes, an electronic billboards, video projector, and the need to educate elementary school students. The above issues have been covered in this qualification study. Studying the ability to read and reproduce audio, video multimedia on classrooms has been studied.

**The structure of the dissertation.** Dissertation consists of Introduction , 3 chapters, 7 paragraphs, general conclusions and recommendations, 63 list of literature, 24 appendices, \_\_\_\_ pages.

**Исматов Собиржон Раҳимқуловичнинг “Бошланғич синф она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш” 5A111701-таълим ва тарбия назарияси ва методикаси (бошланғич таълим) деб номланган магистрлик диссертациясига расмий оппонент**

**Т А Қ Р И З И**

Она тили таълимида ўқувчиларни ижодкорлик сари йўллаш бош масалалардан биридир. Бу масалани ҳал қилиш она тили таълимини ижодий ташкил этиш билан чамбарчас боғлиқ. Жумладан, мазкур диссертацион иш шу муаммога бағишланган. Биз болалардаги иқтидорни бошланғич синфдаёқ англаб етишимиз, шу асосда уларга тўғри йўл кўрсатиб, уларнинг иқтидорини шакллантиришга ёрдам беришимиз лозим. Бу, албатта, она тили таълимини ижодий ташкил этиш асосида шаклланиб боради. Шу сабабли ҳам мавзу ўта долзарбдир.

Диссертация кириш, уч боб, хулоса ва фойдаланилган адабиётлар рўйхатидан иборат.

Ишнинг кириш қисмида мавзунинг долзарблиги, илмий фараз, тадқиқот объекти, предмети, мақсади, вазифалари, тадқиқотнинг методлари, илмий янгилиги, илмий – амалий аҳамияти, татбиқ қилиниши, натижалари, ҳимояга олиб чиқиладиган ҳолатлар ҳақида фикр юритилган.

Мавзунинг долзарблиги илмий жиҳатдан ўринли асослаб берилган. Келтирилган ҳар бир фикр илмий мушоҳадага тортилган. Иш жараёнида тадқиқотчининг эркин ва мустақил фикрлари яққол кўзга ташланади. Тадқиқотчи ўз фикрларини Президентимиз Ш.Мирзиёев асарларидан олинган фикрлар асосида далиллашга ҳаракат қилган. Тадқиқотнинг илмий янгилиги бошланғич синфларда она тили таълимини ижодий ташкил этиш муаммоси алоҳида тадқиқот мавзуси сифатида ажратилиб, унинг воситалари, самарадорлиги, ўқувчилар ўзлаштиришининг сифатини яхшилашдаги ўрни илк бор ўрганилди, деб тўғри таъкидлаб ўтилган.

Тадқиқотчи киришнинг ҳар бир бандини ўзининг илмий мушоҳадалари билан асослаб бера олган.

Ишнинг биринчи боби “Бошланғич синф ўқувчиларининг ижодий ишлаш қобилиятини ривожлантиришнинг илмий-назарий асослари” деб номланиб, уч фаслдан иборат. Биринчи фаслда она тилидан таълимни ижодий лойиҳалаштиришнинг моҳияти ва ўлчовлари хусусида фикр юритилган. Бу ўринда “мустақил иш” ва “ижодий иш”, “ижодий ва ноижодий” топшириқ, “ўқув топшириқлари ва билув топшириқлари” тушунчалари илмий жиҳатдан чегаралаб берилган. Шу билан бирга бу ўринда Я.А.Понамарев, Б.Р.Адиловларнинг ишлари таҳлилга тортилган ва шулар асосида тадқиқотчи ўз қарашларини баён этган.

Иккинчи фаслда эса таълим жараёнида ижодий қобилиятларнинг ривожланиши юзасидан фикр юритилган. Таълимни ижодий ташкил этиш амалиётининг реал аҳволи ва ўқитувчиларнинг ўз фикрларини бир-бири

билан таққослаб ижодий таълимнинг заиф ва кучли томонларини ажратиб берган. Шу билан бирга кузатилган машғулотларнинг дарс типларига тақсимооти алоҳида жадвалда берилган. Бошланғич синфларда давлат таълим стандарти талаблари асосида она тили ўқитишни ижодий ташкил этиш хусусида фикр юритилган. Бунда бошланғич синфларда она тили соҳасида таълим мазмуни ҳамда унинг тўрт йўналиши асосида ўзлаштирилиши илмий жиҳатдан шарҳлаб берилган.

Ишнинг иккинчи боби “Педагогик технологияларни қўллаш орқали ўқувчиларнинг ижодий ва интеллектуал қобилиятини ривожлантириш” деб номланган бўлиб, уч фаслдан иборат. Биринчи фасл “Болаларнинг ўқув-билув фаолияти ва билув топшириқларининг типлари” деб аталиб, унда болаларнинг ўқув-билув фаолияти таҳлил этилиб, билув топшириқлари таснифланган. Тил ва нутқ ҳодисаларининг моҳияти очиб берилган.

Иккинчи бобнинг иккинчи фасли “Бошланғич синф ўқувчиларининг ижодий қобилиятларини ривожлантиришга қаратилган машғулотларни ўтказиш технологияси” деб номланиб, бунда билув топшириқлари шарҳлаб берилган. Шунингдек, бошланғич синфларда фойдаланиш мумкин бўлган билув топшириқлари хусусида ҳам фикр юритилган.

Тадқиқотда бошланғич синф ўқувчиларининг ижодий ишлаш қобилиятини ривожлантиришнинг самарадорлиги ҳам келтирилган. Ишда тажриба-синов ишларининг натижалари келтирилиб, атрофлича таҳлил қилинган. Бошланғич синф она тили таълимини ижодий ташкил этишнинг самарадорлиги хусусида фикр юритилади.

Умуман олганда, ишда юқорида санаб ўтилган ютуқлар билан бирга қатор камчиликлар: имловий ва услубий хатолар, баъзи саҳифаларда такрорлар учраб туради. Аммо ушбу камчилик ишнинг илмий салоҳиятига таъсир қилмайди. Мазкур магистрлик диссертацияси ДАК томонидан шундай ишлар олдига қўйиладиган барча талабларга жавоб беради.

Исматов Собиржон Раҳимкуловичнинг “Бошланғич синф она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш” 5A111701-таълим ва тарбия назарияси ва методикаси (бошланғич таълим) деб номланган магистрлик диссертацияси тугалланган, мустақил бажарилган тадқиқот сифатида ишни ҳимояга тавсия этиб, ижобий баҳолайман.

## **BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH**

### **REJA:**

#### **KIRISH.**

#### **I BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY ISHLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.**

I.1. Zamonaviy pedagogikada ijod va ijodiy qobiliyat masalalari.

I.2. Ta'lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi.

#### **II BOB. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI O'QUVCHILARNING IJODIY VA INTELLEKTUAL QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH.**

2.1. O'quvchilarning ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni tashkil etish hamda o'tkazish usul va shakllari.

2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyasi.

#### **III BOB. BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIGI.**

3.1. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning metod va vositalari.

3.2. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi.

#### **UMUMIY XULOSA**

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

#### **ILOVALAR**

## Kirish

### **Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.**

Respublikamizda mustaqillik yillarining dastlabki yillaridanoq har tomonlama etuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratilgan edi. Hozirgi davrga kelib iqtisodiyotning barcha sohalaridagi kabi ta'lim tizimida ham amalga oshirilgan islohotlar o'zining ijobiy natijasini ko'rsatmoqda. Ta'lim tizimini takomillashtirish uzluksiz davom etmoqda.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy etuk va jahon andozalari talablariga javob bera oladigan, mustaqil bilim olish, o'rganish va ijodiy ishlash qobiliyatiga ega, kelajakda kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qiladigan yuksak ma'naviyatli shaxs qilib tayyorlash oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifalar albatta pedagoglar, murabbiylar, ota-onalar oldiga yuksak masuliyatni qo'yadi.

Ta'lim jarayoniga yangi o'qitish texnologiyalari va faol metodlarini qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, yangi bilimlarni mustaqil egallash qobiliyatini rivojlantirishga erishish mumkin. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida faqat mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsgina o'z muammolarini o'zi mustaqil hal qila oladi va jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'ladi. Bunday qobiliyat esa ta'lim muassasalarida shakllantiriladi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: «Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir»<sup>1</sup>. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisini tayyorlashda o'quvchilarning ijodiy qobiliyati, ong va ko'nikmalarini o'stirish, ularning o'z kasblariga qiziqish va mas'uliyatni oshishiga yordam beradi.

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi”, 2000. – 245 b.

Zamonaviy o'qituvchi bo'lib etishi uchun faqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega bo'lishning o'zi etarli emas, balki mustaqil va ijodiy ishlash ham muhim ahamiyatga ega.

O'tkazilgan dastlabki izlanishlar shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda nafaqat shaxs – tushuntiruvlar va namoyishlar yordamida balki ijodiy faoliyat amaliy ta'sirlar jarayonida shakllantirilishi kerak. Demak, oliy ta'lim muassasasida o'qitish jarayoni bilim va ko'nikmalarni o'quvchilar tomonidan ijodiy o'zlashtirib olishga, kerakli axborotni mustaqil izlash va topishga, hamda amaliy faoliyatda qo'llashni o'rgatishga va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Hozirgi paytda aksariyat hollarda o'qitish metodikalari va texnologiyalari an'anaviy ta'limga asoslangan bo'lib, o'quvchilarda faqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. O'qituvchi o'quv jarayoni boshqaradi, baholaydi va xulosa qiladi. Ammo zamonaviy ta'lim sharoitida o'qitish jarayoni o'quvchining mustaqil bilim olish va o'rganish ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan kasblarini egallashlari uchun fanlarni pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o'qitish ijodiy ishlarni samarali tashkil qilish, ushbu jarayonni yangi o'quv-uslubiy majmualar bilan ta'minlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Yana shuni fikrlash joizki, hozirgi davrda ilm va fanning jadal taraqqiy etishi, zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalarining keng joriy etilishi, turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanishi, texnika va texnologiyaning kun sayin o'zgarib borishi ham boshlang'ich sinf o'quvchilarilardan mustaqil va ijodiy ishlashni talab etadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari uchun yaratiladigan o'quv adabiyotlari hamda elektron ta'lim resurslarining mazmuni ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilishi, mustaqil ta'lim olishga imkoniyat yaratishi, yangi bilimlarni izlab topish ko'nikmalarini hosil qilishni ta'minlashi lozim.

**Tadqiqot obyekti va predmiti:** boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini tadqiq etish.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari:** boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mazmuni va metodikasini ishlab chiqish.

- Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini muammolariga qaratilgan ishlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish;

-pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy va intellektual qobiliyatini rivojlantirish;

-zamonaviy pedagogikada ijod va ijodiy qobiliyat masalalari va tushunchalarini o'rganish;

-ta'lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi va ijodiy tafakkur rivojlanishining sifatlarini o'rganish;

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

- Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammolariga qaratilgan tadqiqot ishlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va intellektual qobiliyati, ijodiy tafakkur rivojlanishi sifatlarining ahamiyati ilmiy jihatdan asoslandi;

-o'quvchilarning ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha o'qitish jarayoni modeli ishlab chiqildi, har bir komponenti mazmuni hamda mohiyati ochib berildi;

-o'quvchilarning ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha dars ishlanmalari ishlab chiqilib amalda tatbiq etildi;

- Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyasining mohiyati yoritib berildi;

### **Tadqiqotning asosiy masalalari va farazi:**

- Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari aniqlanganda hamda ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilganida;

- Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish metodikalari ishlab chiqilganida hamda amalda joriy etilganida;

-pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy va intellektual qobiliyati rivojlantirilganda;

- Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyasi o'rganilgand.

### **Tadqiqotning mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi va tahlili.**

Ishimizning nazariy g'oyalarini ishlab chiqishda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash muammolariga qaratilgan fundamental tadqiqotlar, ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash bo'yicha olimlar, pedagoglar va metodistlar ilmiy ishlari o'rganildi.

Ilmiy asarlar va tadqiqot ishlarini o'rganish hamda tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'lim o'qituvchisini tayyorlashda o'quvchilarning mustaqil va erkin fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish muammolari etarli darajada o'rganilmagan. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining mustaqil ishlash va ijodiy faoliyatini rivojlantirish hamda faollashtirishga oid juda kam ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Bularning asosiy sabablarini quyidagicha ko'rish mumkin:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradigan elektron ta'lim resurslari, zamonaviy didaktik vositalarning etarli darajada ta'minlanmaganligi;



o`quvchilarning ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar hamda faol usullarning qo`llashga kam e'tibor qaratilayotganligi.

Yuqoridagi tahlillar hamda keltirilgan muammolar magistrlik dissertatsiyasining mavzusini “Bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchisining ijodiy ishlash qobiliyatini rivojlantirish ” deb nomlashga asos bo`ldi.

**Tadqiqotda qo`llanilgan metodikaning tavsifi:** ilmiy tadqiqot va ilmiy–pedagogik adabi-yotlar hamda me'yoriy, o`quv–dasturiy hujjatlarni tahlil qilish, o`quv ja-rayonini kuzatish, suhbat, so`rovnoma, testlar o`tkazish, reyting, ekspert ba-holash uslublari, pedagogik tajriba-sinov natijalariga matematik sta-tistik uslublaridan foydalanib ishlov berish va umumlashtirish.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:**

boshlang`ich sinf ona tili ta`limida o`quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga mo`ljallangan topshiriqlar ishlab chiqiladi;

Boshlang`ich sinf ona tili ta`limida o`quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg`ulotlarning dars ishlanmalari va texnologik xaritalari ishlab chiqilib amaliyotda joriy etiladi;

Boshlang`ich sinf ona tili ta`limida o`quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg`ulotlarini o`tkazish texnologiyasi ta'lim jarayoniga qo`llaniladi;

**Ish tuzilmasining tavsifi:** kirish, 3 ta bob, 6 paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

## **I BOB**

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY ISHLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

#### **I.1.Zamonaviy pedagogikada ijod va ijodiy qobiliyat masalalari.**

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida ma'naviy etuk va jahon andozalari talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlashda ta'lim oluvchilarni mustaqilva ijodiy o'rganishga, izlanishga hamda ishlashga yo'naltirish, kelajakda ularni mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs qilib tayyorlash masalasi ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy shartlaridan biridir.

Bugungi kunda ta'lim oluvchilarning ijodiy va erkin fikrlash, axborotni mustaqil ravishda izlash va topish, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Zamonaviy ta'limining vazifalari va maqsadlarining o'zgarishi, hamda kengayib borishi-ta'lim mazmunini va tuzilmasini hamda o'qitish jarayonini takomillashtirishga olib keldi.

Shuningdek, ta'lim muassasalari oldiga ta'lim va tarbiya berish sharoitlarini yaratish va rivojlantirib borish bilan bir qatorda ta'lim oluvchilarning qiziqishi, moyilligi, ehtiyoji, hududiy xususiyatlar va talablariga qarab kadrlar tayyorlash asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarilarni zamonaviy ta'lim talablarini inobatga olib tayyorlashni, ularni tanlagan yo'nalishi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni, mustaqil ravishda pedagogik faoliyat yuritishga o'rgatishni ta'minlashi kerak.

Hozirgi davrda o'qituvchining ta'lim va tarbiya jarayonidagi funktsiyasi va roli o'zgarib faolligi pasayib bormoqda. O'qituvchi o'quv jarayonini samarali tashkil etish bilan bir qatorda ta'lim oluvchilarning ijodiy izlanishlarida imkoniyat yaratuvchi, maslahatchi sifatida qatnashishi davr talabi bo'lib qoldi.

O'qituvchining o'quvchilarni bilish (anglash) faoliyatini boshqarishdagi mahorati. Dars mazmunini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olinishiga yordam beruvchi jihatlar, ularning qiziqish va faolliklarini oshirish ko'nikmasini hosil qilish.

O'qituvchi faoliyatida ko'tarinki ruh, yaxshi kayfiyat, ishga bo'lgan hoxishing etakchi o'rin tutishi va ularni hosil qilish yo'llari.

O'qituvchilarning mustaqil ishlashlarini tashkil etishda o'qituvchining ahamiyati mahorati. O'quvchilarning yakka, guruhli va jamoaviy faoliyatlarini boshqarish. Pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish mahorati.

O'qituvchining dars jarayonidagi mehnati va uni tashkil etishning asosiy yo'nalishlari. Darsning maqsadi va vazifalarini belgilash. Pedagogik vazifalarning xilma-xilligi va ularni amalga oshirish yo'llari. Texnika vositalarini tanlash va ishlatish. Ishni rejalashtirish. Ilmiylik.

O'qituvchining ijodkorligi. Ijodiy holati haqida tushuncha.

O'qituvchining o'z faoliyati, hatti-harakati muomala hamda xulq-odobini tahlil eta olish ko'nikmasiga ega bo'lishi.

O'qituvchi faoliyatida ijodiy holatini tashkil etib, guruh bilan bo'ladigan uchrashuv, dars andozasini tuzish, muloqot usullarini tanlash, pedagogik vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish, tasavvur etish, o'tiladigan dars mavzusini his etish. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi odobi, uning o'zini tutishini hayolan tasavvur etishi, darsni yaxshi o'tishiga o'zini ishontirishi.

O'qituvchining dars davomidagi ijodiy holatini tashkil etish: dars vaqtidagi pedagogik ijodkorlik, saranjomlik, sinfni faollikka undash, qiyinchiliklarni engishga bo'lgan hoxish uyg'otish. Dars davomida mimika, pantomimikadan mohirona foydalanish. Sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatga yo'naltirish, kiyinishda shaxsiy namuna ko'rsatish, o'qituvchi har qanday holatda o'zini tuta olish mahorati.

O'qituvchining darsdan keyingi ijodiy holatini tashkil etish: bo'lib o'tgan voqea hodisalarga munosabat va faoliyat mazmunini tahlil etish, baholash, keyingi

darsni yangicha mazmundagi muomala, munosabatga kirishish asosida o'tkazish borasidagi qarorni belgilash, darsni yuksak darajada o'tishga bo'lgan ishtiyoqini hosil qilish.<sup>2</sup>

Ijodiy qobiliyat masalasi hamma vaqt odamlarning juda katta qiziqishini uyg'otib kelgan. Ammo o'tmishda inson ijodiyotini o'rganishi uchun alohida talab yo'q edi. Inson madaniyatining rivojlanishida turli ilmiy izlanishlar, ixtirolar, san'at va adabiyot asarlarini yaratilib, o'z-o'zidan qobiliyatlar paydo bo'la boshlagan.

Bizning davrimizda sharoitlar tubdan o'zgardi. Ilmiy texnik rivojlanish davrida hayot murakkabroq va xilma-xil bo'la boradi. Bu esa insonlardan takroriy, bir xillikni emas, balki katta va kichik muammolarni echishda unga ijodiy yondashish kerakligini, yangi sharoitga yangicha munosabat zarurligini va unga moslashishni talab etadi.

Agarda ko'pgina kasblar uchun aqliy mehnatning o'rne o'sib borayotganligi haqidagi dalilni hisobga olsak, bajariladigan mehnat faoliyatning eng ko'p miqdori mashinalar yordamida bo'lsa, bundan ayon bo'ladiki, inson ijodiy iqtidori ilmiy-texnologiyalar rivojining muhim qismi bo'ladi-bu esa zamonaviy inson tarbiyasiing eng muhim masalalaridan sanaladi.

Axir jamlangan barcha madaniy boyliklar inson ijodiy faoliyatining samarasidir. O'sib kelayotgan yosh avlodning ijodiy salohiyati inson jamiyatining kelajakda oldinga ilgarilab borishida aniq namoyon bo'ladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishining ob'ekti pedagogik jarayondir, ayniqsa, maktab yoshida ijodiy qobiliyatlarning rivojlanish jarayonidir.

Ish jarayonida biz quyidagi masalalarni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik:  
adabiy tahlil asosida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning asosiy tashkiliy qismlarini aniqlash;

ta'lim oluvchilar iqtidorlarning va ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishida ijobiy shart-sharoitlarni aniqlash;

---

<sup>2</sup> M.Pirmuxamedova. "Pedagogik mahorat asosolari" -. T. 2001yil.

darslarda yoki mashg'ulotlarda ijodiy qobiliyatlar rivojlanishining asosiy yo'nalishlari va pedagogik masalalarini aniqlash;

ta'lim oluvchi ijodiy salohiyatining rivojlanishi uchun pedagogik texnologiyalarni muntazam tadbiq etish samaradorligini aniqlash.

Doimo ijodiy qobiliyatli bo'lish – bu kuchlilikda dalolat beradi. Kelajakda ijodiy qobiliyat bilan intilish, bu har qanday sharoitda muammoli masalalarni hal qilishga tayyor hamda yangi kontseptsiyalar ishlab chiqishga qodir demakdir.

Ijodiy qobiliyat rivojlanish muammosi tahlili, ko'pincha shu tushunchaga yig'ilib boradigan mazmun, mohiyat bilan aniqlanadi. Juda ham ko'p hollarda ongimizda ijodiy qobiliyatlar badiiy faoliyatining har xil turlarini ya'ni chiroyli chizish, she'rlar to'qish, musiqa yozish va hokazolar bilan uyg'unlashadi.

Aslida, ijodiy qobiliyatning o'zi nima?

Ma'lumki, biz ko'rib chiqayotgan tushuncha “ijod”, “ijodiy faoliyat” tushunchalari bilan chambarchas bog'liq.

Ijodiy faoliyat deganda biz insonning shunday faoliyatini tushunamizki, uning samarasi o'laroq xox bu tashqi dunyo predmeti bo'lsin yoki dunyo borliq haqidagi yangilikka olib keluvchi tafakkur tuzilishi bo'lsin yoki butun borliqqa yangi munosabat hissi bo'lsin ularga oid yangi bir narsa yaratiladi.

Agar qaysi jabhada bo'lmasin inson hatti-harakati va faoliyatini diqqat bilan ko'rib chiqsak, unda uning asosiy turini ko'rishimiz mumkin. Insonning ba'zi bir harakatlarini reproduktiv va ishlab chiqilgan yoki dasturlashtirilgan deb atash mumkin. Faoliyatining bu turi bizning xotiralarimiz bilan uzviy bog'liq va uning mazmun mohiyati shu bilan bog'liqki, inson oldin mavjud bo'lgan hatti-harakatlarni takrorlaydi. Inson hatti-harakatida reproduktiv faoliyatdan tashqari ijodiy faoliyat ham mavjud, uning samarasi o'laroq o'tmishdagi tasavvur va harakat malakalarining ishlatilishi emas, balki yangi obraz va harakatlar paydo bo'lishi kuzatiladi.

U.Sodiqov fikricha, zamon talabiga mos mutaxassis tayyorlash uchun faqat bilim berish bilan chegaralanmasdan, ta'lim oluvchilarga har bir masalaga ijodiy

yondashishni o'rgatish kerak. Ta'lim oluvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ularning qiziqishi, havaskorligi bilan bog'liq.

Ta'limga ijodiy yondashuv – shaxsga yo'naltirilgan o'qitishni to'la amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Xorijiy pedagoglar va psixologlar: D.Gilrord, E.Torrans, L.Termen, R.Sternberg, M.Vollax, Rossiyalik olimlar V.Dashlova, P.Galperin, V.Kalno`kova, D.Bogoyavlenskiy, T.Kulikova va boshqalar tomonidan ijodiy fikrlash nazariy jihatdan asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ijodiy faoliyatni rivojlantirish metodikalarini ishlab chiqishda yo'naltirilgan tadqiqotlar davom etmoqda.

D.B.Bogoyavlenskaya fikricha ijodiy ish - muammoli vaziyatni hal qilishga qaratilgan faoliyatdir. Ijodiy faollik deganda hodisalar, jara-yonlar, ob'ektlar ahamiyatini tushungan holda, qiyinchiliklarni yoki muammoni engishga intilish tushuniladi. Ya'ni shaxsning kasbiy faoliyati bo'yi-cha yangi echimlarni izlash va topish hamda natijalaridan qoniqish tushuniladi.

Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etish masalalarini B.R.Adizov "Tadqiqotchi-muammo" tizimida tahlil qilib, uch quyidagi tarkibiy qismlarini ajratadi: ijodiy ta'limni tashkil etish, bolalarning o'quv materiallarini ijodiy o'zlashtirishi, ta'lim oluvchilarda ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash. Bu masalalarning barchasi "ijodiy ta'lim" kontekstida tadqiq qiladi. Uning yozishicha, ijodiy ta'limni tashkil etish - bu o'quv material bilan o'quv faoliyati o'rtasidagi aloqalarni yuzaga chiqarishdir. U ta'lim oluvchi va o'quv material o'rtasidagi to'rt xil aloqa turini tasnif etgan: mazmun aloqa maqsad aloqa: funktsional aloqa: vositaviy aloqa. Bu aloqalarning amal qilishi uchun ta'lim oluvchining ta'lim jarayonidagi maqomini o'zgartirishga ehtiyoji tug'iladi. Shu tufayli muallif ta'limda ta'lim oluvchilarning faol ishtirokini, ularning o'quv-biluv faoliyatini asosli tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotda bolalarning o'quv – biluv faoliyati ta'lim jarayonining faol sub'ekti sifatida qaralib, ta'lim oluvchi ijodkorligining qator tamoyillari ajratilgan: ziddiyatlilik, onglilik, mustaqillik, faollik, sababiyatlilik. Ijodiy faollikni shakllantirish va rivojlantirish – bosqichma- bosqich hal

qilinadigan muammodir. Shaxs faolligi turli, ya'ni o'quv ilmiy ishlab chiqarish, ijodiy faoliyatlar ta'sirida shakllanadi va rivojlan-tiriladi.<sup>3</sup>

Psixolog olim S.L.Rubinshteynning fikricha, ijodiy faoliyat jarayonida kishida asta-sekin ishning qaysi joyini, nimani o'zgartirish, yax-shilash, takomillashtirish masalasini o'ylash tamoyili vujudga keladi. Natijada mavjud bilimlarni taqqoslash, kuzatish va ijod jarayonida kelib chiqadigan vazifalarga muvofiqlashtirish, mo'ljallangan echim umumiy tu-zilishini fikran tasavvur etish zarurati tug'iladi.<sup>4</sup>

Shunday qilib, umumiy holda ijodiy qobiliyat talqini quyidagicha ko'rinadi. Ijodiy qobiliyatlar – bu turli ijodiy faoliyatning samarasi bajarilganligini aniqlaydigan insonning individual xarakterli xususiyatidir. Insonning har qanday faoliyatida ijodiy element mavjud bo'lganidek, faqatgina badiiy ijodiy iqtidor haqidagina emas, balki tabiiy ilmiy iqtidor, texnik ijodiy iqtidor va boshqalar haqida ham gapirib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu ishda ilmiymi, badiiy yoki texnikmi qat'iy nazar ijodiy faoliyatni har qanday turining samarali bajarilishi uchun zarur bo'lgan universal ijodiy qobiliyatining rivojlanish masalasini ko'rib chiqamiz.

O'quv tarbiyaviy jarayonni boshqarishda buyuk mutafakkirlarning fikrlari pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga buysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalarni echish jarayonidir. O'qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni echish usullarida, ularni hal qila olish yo'llarini qidira topa bilishlarida ifodalanadi.

---

<sup>3</sup>Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok. diss. T., 2003. 280 b.

<sup>4</sup>Rubinshteyn S.L. Problemi obshey psixologii. – M.: 1976. Pedagogika, – 416 b.

Pedagogik ijodkorlik manbai-bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba-muammoli vaziyatlarga juda boydir.

Ilg'or pedagogik tajriba deganda, biz o'qituvchi ning o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishini, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz.

Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan shu shakli va usullari, uslub va vositalaridir. Ular vositasida o'quv-tarbiyaviy ishlarda eng yuqori natijalarga erishiladi.

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganib, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli o'zgarishlar kiritadi, o'quvchilarni bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini echishga sabab bo'ladi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi faqatgina bolalarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash, ilg'or O'qituvchilar ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur. O'qituvchi ning kasbnomasida pedagogik mahorat eng asosiy sifat tarzida berilgan. Pedagogik mahoratning o'zi nima?- deb savol bersangiz nechta kishi bo'lsa o'shancha xil javob beradi. Har birini diqqat bilan tinglasangiz, har qaysi javobda ham albatta biror-bir yangilik, o'zak so'z bo'ladi. «Pedagogik mahorat» tushunchasini entsiklopedik lug'atdan qaraydigan bo'lsak, bu –ta'lim va tarbiya jarayonini doimo rivojlantirib yuksak darajaga olib chiqish san'ati bo'lib, bu har bir pedagog uchun xos, qachonki u bolalarni va ishini sevsa.

Pedagog - bu yuksak madaniyatli mutaxassis, o'z fanini chuqur biluvchi va bolalar psixologiyasini yaxshi biluvchi, ta'lim-tarbiya metodikasini mukammal biluvchidir.

Pedagogika tarixida ikkita ta'rif bo'lib, birinchisi pedagogik mahoratni ta'lim-tarbiya metodlari bilan bog'lasa, ikkinchi guruh olimlar esa pedagog shaxsini asosiy omil deb hisoblaydi. Bunday tushunchani ajratib bulmaydi, zero metod ham, shaxs ham bir-birisiz bir-birini to'ldirolmaydi va metodni olib borish uchun



hamma narsani bilish va bajara olish lozimki, bo'lar ta'lim-tarbiya qonunlari, tamoyillari, texnologiya, diagnostika, loyihalash, korrektsiyalash va hokazolardan iborat.

Buni mahorat bilan bajarish uchun ko'p yil va uzoq mehnat talab qilinadi. Yana shunday fikr borki, bunday mahoratga ega bo'lish uchun talant kerak. Hayotda hamma tarbiyachi bo'lib tug'iladi, demakki, faqat pedagogik mahoratni o'rganish, o'rgatish kerak.

A.S. Makarenko fikricha «... nima biz faqat talantlarni izlashimiz kerakmi? Ular nechta? Talantli bo'lmagan bola nega jabr toritishi kerak? Demak, biz talantgagina e'tibor berib tarbiyani qura olmaymiz, demak, o'qituvchi tarbiya jarayonini to'liq, aniq bilishi shart».

Ayrim olimlarning fikricha (N.D. Kuzmina) bor-yo'g'i 12% o'qituvchi talantli bo'lib, qolganlari pedagogik mahorat qirralarini egallagan o'qituvchilardir. Pedagogik mahorat shunisi bilan ajralib turadiki, bunday o'qituvchilar har qanday vaziyatdan chiqa oladi, javob bera oladi va o'quvchilarning tarbiyalanganlik va bilimdonlik darajasining samaradorligiga erisha oladi. Bunday o'qituvchi o'z fanini chuqur biladi, uning yutuqlarini, istiqbollari xaqida bilimga mukammal ega, ijtimoiy faol, intellektual shaxs.

Birgina bilimning o'zi etarli? Uni o'qituvchi larga etkaza bilish ham kerak. Bu esa metodika. Bunga o'rgatish mumkinmi?- degan savol tug'iladi. Ha, agar uzluksiz malaka oshirib, o'z ustida ishlasa va pedagogik tajribani kuzatib, o'rganib borsa. Xo'sh, bu mahorat nimalarda namoyon bo'ladi:

1. Albatta birinchi o'rinda dars turadi, ya'ni o'qita bilish. O'qituvchilar faoliyatini boshqara bilish. Darsda o'rganish. Uyga vazifa bu chuqurlashtirish, to'ldirish, xolos. Darsda o'qituvchi rejissyor.

2. Pedagogik mahoratning yana bir tomoni - bu o'qituvchilarni faollashtirish, qobiliyatini rivojlantirish, mustaqillikka o'rgatish. Bunday o'qituvchi o'quvchilarni fikrlashga, ijodkorlikka, mustaqil ishlashga, bir-biridan o'rganishga o'rgatadi.

3. Pedagogik mahoratning yana bir jihati ta'lim jarayonida tarbiyalashdir. O'qituvchi ta'lim jarayonida axloqiy xislatlarni, vatanparvalik, mustaqillik kabi xislatlarni shakllantiradi.

4. Ijobiy xislatni shakllantirish esa oddiy usullar, hissiyot, faollik, hazil-mutoyiba, qiziqarli misollar, ijobiy tanqid, takroriy bo'lmagan metodlar, original variantlar kabi ishlar bilan olib boruvchi o'qituvchi mahoratidir. O'quvchilar bunday o'qituvchi ni, uning fanini sevadilar.

5. Pedagogik mahorat- pedagogik texnika, takt, temp, shaxsiy xususiyat, bilim, dunyoqarash, umumiy bilimdonlik, ilg'or tajribani bilish, ta'lim-tarbiyaning qonunlari, tamoyillari, vazifasi, maqsadini, vositasini bilishdir.

6. Pedagogik mahoratning asosiylaridan yana biri bu muloqotni, muloqot psixologiyasini bilishdir. O'z shaxsiy xususiyatlari va o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini bilish orqali munosabatda bo'lish. O'z diqqati va o'quvchilar diqqatini boshqara olish, hayotni boshqarish va uni ko'rsata bilish, nutq, nutq madaniyatini bilish va h.k.

7. Nutqsiz muloqot ham pedagogik mahoratda asosiy rol o'ynab, unga mimika, pantomimika, tovush ohangi, harakat, sukut, masofa, teginish, intonatsiya, qanday holatda turish va hokazolar kirib, uni mahorat bilan boshqara olish ham lozim.

K.D.Ushinskiyning pedagogika nazariyasi xalqchilik g'oyasi asosida qurilganidir. «Har bir mamlakatda bolalarni tarbiyalash tizimi, — deb aytgan edi u, — xalqning rivojlanish sharoitlari, uning ehtiyoj va talablari bilan belgilangan». «Hamma uchun umumiy bo'lgan birgina tug'ma moyillik borki, tarbiya hamisha shunga tayanishi mumkin; bu biz xalqchilik deb atagan narsadir. Xalqning o'zi tomonidan yaratilgan va xalqchilik asosiga qurilgan tarbiya shunday tarbiyaviy kuchga egaki, bunday kuch abstrakt g'oyalarga asoslangan yoki boshqa xalqlardan olingan eng yaxshi tizimlarda ham yo'qdir» Ushinskiy xalqchilik deb har bir xalqning o'ziga xosligini tushunar ediki, bu o'ziga xoslik o'sha xalq yashashi va mehnat qilishi lozim bo'lgan tarixiy taraqqiyot, geografik

va tabiiy sharoitlar bilan ifodalanadi. U «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi» sarlavhali maqolasida tarbiyaning xalqchillik ruhida bo'lishi kerakligini aytib, boshqa xalq pedagogikasini mexanik suratda rus tuprog'iga ko'chirishni aqlga mutlaqo muvofiq emasligini ta'kidlaydi.

Ushinskiy tarbiyada xalq ruhining eng yaxshi ifodasi ona tili ekanligiga, rus bolalarini o'qitishda rus tili asos bo'lishligini; boshlang'ich maktablardagi ta'lim ham bolalarni rus tarixi, Rossiya geografiyasi va uning tabiati bilan tanishtirmog'i lozim deydi.

Ushinskiyning pedagogika tizimida ona tilining tarbiyaviy va ta'limiy ahamiyati tarbiyaning asosi bo'lgan xalqchillik bilan chambarchas bog'liqdir. K.D. Ushinskiy tarbiya ishidagi turli vositalar orasida axloqiy tarbiyaga katta e'tibor berib, «Tarbiyaning asosiy vazifasi axloqiy jihatdan ta'sir etishdan iboratdir, bu aqlni umuman o'stirish, boshni bilimlar bilan to'ldirishdan ko'ra ham muhimroqdir», — deb yozgan edi.

Axloqiy tarbiya bolalarda odamlarga hurmat va muhabbat bilan qarashni, ularga nisbatan samimiy, xayrixoh va adolatli munosabatda bo'lishni o'stirishi kerak.

Ushinskiy ko'r-ko'rona, tayoq intizomiga qarshi norozilik bildirib, «Eski maktabda intizom nihoyatda g'ayritabiiy asosga yoki mukofotlar va yoki jazolar ulashib beruvchi o'qituvchi dan qo'rqish asosiga qurilgan edi. Bu qo'rquv bolalarni zararli holatlarga: sustkashlikka, sinf doirasidagi zerikishga va ikkiyuzlamachilikka olib keldi» deb u bolalarga nisbatan insoniy munosabatda bo'lishni talab qildi.

So'nggi yillarda uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarining moddiy-texnik holatini mustahkamlash, ta'lim jarayonini zamonaviy axborot vositalari yordamida tashkil etilishiga erishish, o'quvchilar bilimni jahon standartlari talablari darajasiga ko'tarish va ta'lim muassasalari faoliyatida yuqori samaradorlikka erishish yo'lida amaliy harakatlar olib borilmoqda. Sinf xonalari, auditoriyalarning zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlanganligi, o'quvchilarning ijodiy va

tadqiqotchilik faoliyatini yo'lga qo'yishga imkon beruvchi maxsus xonalarning tashkil etilganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Shuningdek, ta'lim muassasalari faoliyatida samaradorlikka erishish masalasining nazariy tadqiqiga ham alohida e'tibor qaratilganligini ta'kidlab o'tish joiz. Ana shu yo'nalishda bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirildiki, ularning asosiy g'oya va natijalari barcha turdagi ta'lim muassasalarining faoliyati samaradorligini yuqori darajaga ko'tarishga qaratilgan ijtimoiy harakatning ilmiy asosda olib borilishida poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, R.Ahliddinov, D.Oldroyd, A.Xo'jaev, F.Nosirova va M.Komilovalar hamkorligida olib borilgan tadqiqot ishida ta'limni boshqarishning o'ziga xos jihatlari, milliy-mintaqaviy omillari, bu yo'nalishda mavjud bo'lgan muammolar, ularni samarali hal etish yo'llari o'rganilgan. Ishda ta'limning samarali boshqarilishi bir qator omillarga bog'liqligiga urg'u berilgan.

Ishda mualliflar ta'limning boshqarilishi:

- 1) jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojining ob'ektiv qonunlariga;
- 2) rivojlanayotgan jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari, talablariga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlab o'tishgan.

Bizning nazarimizda, bu o'rinda ta'limning sifatli va samarali boshqarilishida rahbar mutaxassislarning mahorati, ularning tadbirkorligi va tashabbuskorligi ham muhim ahamiyatga egaligini qayd etib o'tish maqsadga muvofiq bo'lardi. Binobarin, katta moddiy-texnik imkoniyat, ilmiy-pedagogik potensialga ega sharoitda ham ayrim rahbarlarning uquvsizliklari, rahbarlik va pedagogik salohiyatiga ega emasliklari ta'lim muassasalari faoliyatida bir qator muammolarni keltirib chiqaruvchi omil bo'layotganligi barchaga ma'lum.

O'quv muassasalari faoliyatida samaradorlikka erishish omillaridan biri – bu ta'lim muassasasi boshqaruvini to'g'ri yo'lga qo'yish hisoblanadi. SHu sababli ixtisoslashgan maktablarda ham tashkiliy, o'quv va tarbiyaviy jarayonlarning to'g'ri tashkil etilishi o'quv yurti rahbariyatidan boshqaruvchanlik qobiliyatiga ega bo'lishni taqozo etadi. Ayrim manbalarda rahbar xodimlarning G'arb mamlakatlari

ta'lim tizimida muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan quyidagi sakkiz tamoyilga asoslanib ish ko'rishlari maqsadga muvofiq ekanligi aytib o'tiladi:

Qanday shaxsni «qobiliyatli» deb atash mumkin? SHaxs qobiliyati nimada ko'rinadi? SHaxs qobiliyati darajasini o'lchash mumkinmi? Qobiliyatli o'quvchilar tengdoshlaridan qanday xususiyatlariga ko'ra farqlanadilar? Qobiliyatli o'quvchilarni bilan ishlashda nimalarga e'tibor berish zarur?

Pedagogik va psixologik manbalarda «qobiliyat», «iste'dod» («talant») tushunchalari birdek qo'llaniladi. So'nggi yillarda «qobiliyat» tushunchasi «iste'dod» tushunchasining muqobili sifatida qo'llanilmoqda. Manbalarda qayd etilishicha, qobiliyat «shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyat», iste'dod, qobiliyat esa «shaxsning ma'lum faoliyatda ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi» demakdir.

P.Frolov ham o'z ishida ta'lim muassasasi rahbari ega bo'lishi zarur bo'lgan xislatlarni ular tomonidan amalga oshiriluvchi vazifalar negizida yoritadi. Uning fikricha, muassasa rahbari quyidagilarni bajarishga mas'ul: mo'ljal olish; muvofiqlashtirish; rag'batlantirish; tajriba to'plash; jamoa va har bir o'qituvchi faoliyatini sifat jihatdan yaxshilashga amaliy yordam ko'rsatish; eng yaxshi tayyorgarligi bo'lgan o'qituvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etish; shaxslararo munosabatlarni takomillashtirish; jamoatchilik fikrini tarkib toptirish va o'z faoliyatida unga tayanish; sog'lom psixologik iqlimni yaratish; oldindan bashoratlay olish va rejalashtirish; ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga oid muammoli masalalarni chuqur o'rganish.

R.Ahliddinov, J.Yo'ldoshe, V.S.Lazarev va M.M.Potashniklarning qayd etishlaricha, ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etishga oid dastur va ishchi reja, ularning qay darajada mukammal ishlab chiqilganligi ham samaradorlikka erishishning muhim omilidir.

Faoliyat dasturi va ishchi rejalarni ishlab chiqishda quyidagi etti tamoyilning inobatga olinishi alohida ahamiyatga ega:

1) dolzarblik (dasturning ta'lim muassasasi uchun ahamiyatli bo'lgan muammolarni hal qilishga yo'naltirilganligi);

2) istiqbolni belgilay olish (dastur maqsadi hamda rejalashtirilgan faoliyatda ta'lim muassasasiga bugun va kelajakda qo'yiladigan talablar, shuningdek, sharoitlarining o'zgaruvchanligini aks ettira olganligi);

3) amaliylik (dasturning kutilayotgan va ro'yobga chiqarish imkoniyati bo'lgan maqsadlar, shuningdek, rejalashtirilayotgan maqsadlar bilan ularni ro'yobga chiqarish vositalari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlay olishi);

4) oqilonalik (dasturning maksimal darajada foydali natijalarga erishish imkonini beruvchi maqsadlar va ularni ro'yobga chiqarish vositalarini belgilay olishi);

5) yaxlitlik (dasturning qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lidagi xatti-harakatlarning oqilona bo'lishini, shuningdek, dasturda belgilangan faoliyatlar o'rtasidagi aloqalarning kelishilganligini ta'minlay olishi);

6) nazoratlilik (dasturning tugal va oraliq maqsadlar yoki kutilayotgan natijalarning real natijalarga muvofiqligini tekshirish usuliga ega bo'lishi);

7) og'ishlarga sezuvchanlik (dasturning bajarilayotgan real ishlar holati, shuningdek, dasturda nazarda tutilgan va erishish uchun xavf solishi mumkin bo'lgan og'ishlarni o'z vaqtida aniqlay olishi).

U.I.Inoyatovning tadqiqot ishida kasb-hunar kollejlarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarishning nazariy va tashkiliy-metodik masalalari o'rganilgan bo'lib, unda tayanch tushunchalarga sharh berishga urinilgan. Biroq, ularni lug'aviy jihatdan yoritish e'tibordan chetda qolgan. Masalani ana shu taxlidda o'rganilishi ishni nazariy jihatdan boyitgan bo'lar edi.

Maktablar faoliyatining samaradorligini oshirishga quyidagilar ta'sir etadi:

1) ta'lim muassasasi boshqaruvining to'g'ri yo'lga qo'yilishi;

2) ta'lim muassasasi rahbarining boshqaruvchilik mahoratiga ega

bo'lishi;

3) ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etishga oid dastur va ishchi reja, ularning qay darajada mukammal ishlab chiqilganligi;

4) ixtisoslik yo'nalishiga ko'ra ta'lim muassasasiga qobiliyatli o'quvchilarning to'g'ri tanlanishi, bu jarayonda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan o'tgan metodikalarning maqsadli qo'llanilishi;

5) qobiliyatli o'quvchilarni tanlash va ularga ta'lim berishda samarali, yuqori natijalarni kafolatlaydigan yo'llardan foydalanish;

6) o'quvchilarning qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga oid ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va ularni ta'lim muassasasi faoliyatiga tadbiq etish;

7) ta'lim muassasasi faoliyatida qobiliyatli o'quvchilarga ta'lim berish, ularning qobiliyatini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

8) muassasa jamoasining yagona maqsad asosida hamjihatlikda faoliyatni tashkil eta olishlariga erishish.

Shuningdek, quyidagi shaxslar tomonidan tashkil etilayotgan xatti-harakatlar mazmuni, maqsad va yo'nalishlari ham ixtisoslashgan ta'lim muassasasi faoliyatida samaradorlikni ta'minlashga ta'sir etadi:

- 1) ta'lim muassasasi direktorining faoliyati;
- 2) direktor o'rinbosarlarining faoliyati;
- 3) rahbar organlarning faoliyati;
- 4) pedagogik jamoaning umumiy faoliyati;
- 5) pedagog-xodimlarning individual faoliyatlari;
- 6) o'quvchilarning faoliyati.

Ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligini baholashda quyidagi tamoyillarga amal qilinishi talab etiladi:

- 1) faoliyatga majmuaviy va tizimli yondashuv;
- 2) ob'ektivlik;
- 3) oshkoralik;

4) demokratik tamoyillarga tayanib ish ko'rish;

5) mintaqaviy xususiyatlar hamda faoliyat yo'nalishini inobatga olish.

Tadqiqotni amalga oshirishda muammo mohiyatini chuqur tahlil etish,

qobiliyatli o'quvchilarni o'qitishda ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligini quyidagi mezonlar asosida baholash maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi:

1. Maktab o'quvchilarining o'quv predmetlari bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish darajasi.

2. Maktab o'quvchilarining maxsus fanlar bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish darajasi.

3. O'quvchilarning xalqaro, respublika, viloyat, shahar va tuman miqyosida tashkil etilgan fan olimpiadalari, turli yo'nalishlardagi ko'rik-tanlov va musobaqalardagi ishtiroki ko'rsatkichi.

4. Maktabning ixtisoslik bo'yicha malakali yosh mutaxassislartayyorlash ko'rsatkichi.

Demak, **qobiliyat** u yoki bu yo'nalishdagi faoliyatning yuksak samaradorlik, unum va muvaffaqiyat bilan bajarilishini ta'minlovchi psixologik xususiyatdir.

**Qobiliyatli o'quvchilar** esa o'zlarida yuqori darajada bilish, psixologik va jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini namoyon etuvchi shaxslardir. Qobiliyatli bolalarni tanlash murakkab jarayon bo'lib, uni tashkiliy jihatdan to'g'ri amalga oshirish talab etiladi.

Jahon pedagogikasi qobiliyatli bolalarni aniqlash bo'yicha muayyan tajribalarga ega bo'lsa-da, qobiliyatlik darajasini aniq belgilovchi yagona metodika mavjud emas. Ayni vaqtda individual farqlar hamda shaxsiy o'ziga xos xususiyatlarni belgilashda psixometriya doirasida bir qator metodlaridan foydalanilmoqda.

Jahon ta'limi tajribasida qobiliyatli bolalarni tanlashga bo'lgan quyidagi ikki tizim qo'llaniladi




Yagona baholash tizimi bolaning ma'lum xususiyati yoki faoliyatining ayrim olingan jihatlarini o'rganish va baholashga yo'naltiriladi. Bu holatda maxsus testlardan individual foydalaniladi, bola shaxsi turli sharoit va yo'nalishlarda o'rganiladi.

### Ijodiy qobiliyatli bolalarni tanlash tizimlari

Bola shaxsini yaxlit o'rganish va uning faoliyati mazmunini majmuaviy baholash tizimiga muvofiq kichik bolalar guruhlarida amalga oshirilgan test natijalari, sinf (guruh) rahbari tomonidan muayyan bolaga berilgan taqdimnoma mazmuni, shuningdek, bolaning nomzodlar davrasidagi mavqei (faolligi, mantiqiy fikrlash layoqati, nutq boyligiga egaligi, u yoki bu faoliyatni bajarishdagi harakatlarning aniqligi, to'g'riligi va boshqa xislatlar) asosida bola qobiliyati darajasi baholanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida esa o'quvchilar qobiliyatlilik darajasining quyidagi usullar bilan o'lchash an'anasi mavjud.



***Shaxs iqtidorini aniqlashning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha umumiy mezonlari***

Qobiliyatli bolalar alohida xususiyatlari bilan tengdoshlaridan ajralib turadilar. Ularga xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlar quyidagilardir:

1) nodir qobiliyatlarni namoyon eta olish;

2) yuksak natijalarni qo‘lga kiritish imkoniyatlariga egalik;

3) bir yoki bir necha yo‘nalishlarda (aqliy salohiyat, ta‘lim olishga bo‘lgan o‘ziga xos xususiyat, ijodiy va samarali tafakkur, tasviriy yoki amaliy san‘atga bo‘lgan layoqat; psixomotor qobiliyatlarga tayangan holda) muayyan natijalarni qo‘lga kiritganlik.

Qobiliyatli bolalar ega bo‘lgan nodir qobiliyatlar orasida:

- bir vaqtning o‘zida bir necha faoliyatni bajara olish (masalan, eshitish, ko‘rish, o‘qish, yozish, fikr yuritish, muloqot qilish va boshqalar);

- atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqelikni birdek qabul qilish (jumladan, o‘qituvchining ma‘ruzasini eshitgani holda, sinfdagi har bir o‘quvchi faoliyatini kuzata olish);

- o‘ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqea-hodisa (garchi ular eng ahamiyatsiz, e‘tiborga tashlanmaydigan bo‘lsa-da) mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko‘p savollarning berilishi);

- miya faoliyatining biokimyoviy va elektrik faolligi (miya deyarli to‘xtovsiz faoliyat ko‘rsatib, nihoyatda kam vaqt «dam oladi», shuningdek, bilish jarayonida noaniqliklar ko‘zga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi; uyquchanlik qobiliyatli bolalarga xos xususiyat emas);

- nutqi va fantaziyasining boyligi (qobiliyatli bolalarning aksariyati juda erta gapirishni o‘rgangan, ularning nutqi kutilgandan ko‘ra yuqori, shuningdek, ularda fantaziya (tasavvur qilish) qobiliyati nihoyatda kuchli);

- kuchli xotira (yirik hajmdagi matni, jumladan, dostonlarni bir marta o‘qish bilan to‘laligicha yodlab olib, uni so‘zma-so‘z qayta hikoya qilib berish qobiliyati)ga egalik kabilar alohida o‘rin tutadi.

Qobiliyatli bolalar bilan ishlashning an'anaviy ta'lim jarayonidan farqli tomoni – bu pedagogik faoliyatning maxsus o'quv va tarbiyaviy ishlar dasturlari asosida tashkil etilishi sanaladi. Maxsus dasturlar mazmunan qobiliyatli bolalarni o'qitishning o'ziga xosligini ifoda etadi.

Bu kabi o'quv va tarbiyaviy ishlar dasturlarini yaratishda ma'lum tamoyillar asosida ish yuritiladi. Ayni vaqtda jahon pedagogikasi amaliyotida M.Karne tomonidan asoslangan tamoyillar asosida faoliyat yuritilmoqda. Ular quyidagilardan iborat:

1. Dasturning individuallashtirilganligi.
2. Dasturlarni tuzishda o'qituvchilarning ishtirokini ta'minlash.
3. Dasturlarni yaratish va uni ta'lim jarayoniga yo'naltirishdagi shaxsiy mas'uliyat.
4. Ish joylarida mutaxassislarning malakalarini oshirish.
5. Pedagoglarning malakasini oshirishga sarflanuvchi qo'shimcha mablag'lar yaratish.(Homiylar hisobiga)
6. Dasturda turli metodlarning o'rin olishi.
7. Individual va guruhli tayyorgarlik darajasini baholash.

Ushbu tamoyillar asosida o'quv va tarbiyaviy ishlar dasturlarini yaratish ham qobiliyatli bolalar bilan ishlash jarayoniga o'qituvchilarni jalb etishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmunining shakllanishiga yordam beradi.

Qobiliyatli bolalar bilan ishlashga qaratilgan davlat siyosati bu borada mavjud imkoniyatlardan to'laqonli foydalanishni taqozo etadi. O'qituvchilarning to'g'ri tanlanishi qobiliyatli bolalarni o'qitishda muayyan samaralarga erishishni kafolatlaydi.

1998 yildan boshlab respublikada Tashxis markazlari faoliyat olib bormoqda. O'z tarkibiga psixolog, pedagog, fiziolog, tibbiyot xodimlari kabi mutaxassislar jalb etilgan markaz olti-etti yoshli bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini aniqlash vazifasini bajarmoqda. Bizning nazarimizda, ularning faoliyati aynan bolalarning qobiliyati darajasini aniqlash, ularni layoqati, qobiliyati va

qobiliyati darajasiga ko'ra turli yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalariga jalb etishdan iborat bo'lishi lozim. Markaz faoliyati yordamida qobiliyatli bolalarni o'z vaqtida va to'g'ri aniqlash, ularning qobiliyatini yanada rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, ularni kasbga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Umumiy yoki maxsus qobiliyatga ega bolalarga ta'lim va tarbiya berish o'ta murakkab jarayon. Ana shu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish maqsadida ixtisoslashgan maktablarni tashkil etish borasida xalqaro tajriba to'plangan.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar bugungi kunda qobiliyatli bolalarni aniqlash borasida katta tajribalarga ega. Ta'lim tizimida qobiliyatli bolalarni aniqlash va ularga ta'lim berishga oid ko'plab metodikalar mavjud.

Quyida ularning ayrimlari to'g'risida to'xtalib o'tiladi:

Demak, qobiliyatli o'quvchilarga malakali ixtisoslik ta'limi berishda ixtisoslashgan maktablar muhim o'rin tutadi. Maktablar faoliyati samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri qobiliyatli o'quvchilarni tanlash, ularni bu kabi ta'lim muassasalariga jalb etish va o'qitish sanaladi. Qobiliyatli o'quvchilarning maktablarda ta'lim olishlari ularning imkoniyatlari darajasini yanada rivojlantiradi.

Ayni vaqtda respublikada faoliyat yuritayotgan ixtisoslashgan maktablarning samaradorlik ko'rsatkichlari qanday? Ular faoliyatini yanada takomillashtirish imkoniyatlari qanday? Bu kabi savollarga javob topish bevosita tadqiqot ishining natijasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Dissertatsiyaning navbatdagi paragrafida respublika ixtisoslashgan maktablari faoliyatining samaradorlik darajasi tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan tajriba maktablari misolida yoritib beriladi.

## **I.2. Ta'lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi.**

Inson ijodiy salohiyati tashkiliy qismlari haqida hozirgi paytda bir necha farazlar mavjud bo'lsa ham, bu masala hozirgacha ochiq turibdi. Ko'pchilik

psixologlar (eng avvalo tafakkur xususiyatlari bilan) qobiliyatni ijodiy faoliyat bilan bog'laydilar, eng avvalo tafakkur xususiyatlari bilan bog'laydilar. Inson intellekti masalalari bilan shug'ullanadigan amerikalik mashhur psixolog Gilford talqini bo'yicha ijodkor shaxslar divergent tafakkurga ega bo'lishadi. Ushbu tafakkur turiga ega bo'lgan insonlar biror bir masala echimini topmoqchi bo'lsalar faqat yagona bir echimni emas, balki echimning bir necha variantarini ko'rib chiqadilar. Bunga insonlar elementlardan yangi kombinatsiyalar tuzadilar qaysiki ko'p odamlar bularni biladilar va ma'lum bir turlarda ishlatadilar yoki bir-biri bilan umuman o'xshamagan ikki elementning bog'liqligini shakllantiradilar.

Tafakkurning divergant usuli ijodiy tafakkur asosida yotadi, bu esa quyidagi xususiyatlar bilan xarakteralanadi:

Tezkarilik g'oyalarning maksimal miqdorini aytish (bu holda ularning sifati emas soni zarur).

Turli xil g'oyalarni namoyon eta olish.

Originallik - yangi nostandart g'oyalarni yaratish qobiliyatiga ega bo'lish.

Natijaviylik – o'zining “mahsulot”ini yaratish yoki uni oxirigacha tugatish, tayyor holga keltirish.

Ijod masalalarini o'rganuvchi taniqli A.N.Luk hammaga mashhur musiqachilar, rassomlar, olimlar biografiasini o'rganib turib quyidagi ijodiy qobiliyatlarni ajratadi.

Boshqalar anglay olmaydigan, ko'ra bilmaydigan joydagi muammoni ko'ra bilish.

G'oya va yangiliklarni (fikrini) lo'nda bir og'iz so'z bilan hammaga tushunarli qilib etkazib bilish.

Bir masalani echimidan keyin ikkinchisiga o'tish mobaynida yangiliklarni qo'llash malakasiga ega bo'lish.

Butun borliqni yaxlit holda, uni qismlarga bo'lmasdan qabul qilish.

Murakkablashib, ajralib yoki uzoqlashib ketgan tushunchalarni osongina yig'ish.

Kerakli daqiqada zarur axborotni xotirada qayta tiklab uni etkazish.

Tafakkurning izchilligi.

Muammoni echishda alternativ echimlar ichidan eng maqbul variantini tanlab bilish.

Yangi qabul qilangan ma'lumotlarni oldin mavjud bo'lgan bilimlar tizimiga qo'llay bilish.

Narsa, buyum yoki ob'ektni qanday bo'lsa o'shandayligicha ko'rib bilish, ular orasidan interpretatsiya bilan kelib chiqqanini kuzatib bilish.

G'oyalar ichidan eng yuksagini ajrata bilish.

Ijodiy yondashish va fikrlash.

Ilk o'ylangan g'oyani maromiga etkazishda har bir elementni e'tiborga ola bilish. V.T.Kudryavtsev va S.V.Sinelnikov keng tarixiy-madaniy materiallar (falsafa tarixi, ijtimoiy fanlar, san'atlar, amaliyotning alohida ma'lum bir qismiga) asoslanib quyidagi universal ijodiy qobiliyatlarni ajratishdi .

Anglashning realligi – inson bir qancha ob'ektni aniq tushunib etgunga qadar va uni murakkab mantiqiy kategoriyalar tizimiga kiritgunga qadar umumiy tendentsiyasi yoki uning (ob'ektning) rivojlanishining qonun – qoidalarini obrazli qamrab olish.

Yaxlitlikni qismchalardan oldinroq ko'ra bilish.

Xarakterli ijodiy echimlar sharoitidan tashqari oldinroq echimni topish davrida oldin aytgan alternativlardan emas, balki o'zi mustaqil holda alternativ yaratishi kerak.

Tadqiqotchilik - predmetlarini yashirin tuzilishini aniqlashda anglab va maqsadli qilib sharoit belgilash, shuningdek bu sharoitda ular “harakat” ini kuzatib analiz qilish.

Ijodiy tarbiya metodikalarini ishlab chiqishda olimlar va pedagoglar ijodiy topshiriqlarning nazariyasi asosida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha dasturlarni quyidagi ijodiy qobiliyatlarini ilgari suradilar.

-Tavakkal qila bilish.

- Tafakkurning divergentligi.
- Anglash va harakatlarda izchillik.
- Fikrlash tezligi.
- Original g'oyalarni ayta bilish va yangilarini yaratish.
- Juda ham boy ong.
- Narsa, buyumlarning bir xilda ko'rmasligini tushuna bilish.
- Yuqori estetik did.
- Rivojlangan intuatciya.

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlarni tahlil qila turib quyidagicha xulosa qilish mumkin: ijodiy qobiliyatlarni o'rganishdagi turli yondashuvlarga qaramasdan olimlar bir ovozdan ijodiy anglash va ijodiy fikrlash sifatini ijodiy qobiliyatning asosiy tashkiliy qismi ekanligi xulosasiga keldilar.

Bundan kelib chiqqan holda, ta'lim oluvchilar ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishni quyidagi asosiy yo'nalishlarni aniqlash mumkin:

Tasavvur va rivojlantirish bo'yicha.

Fikrlar shakllantiruvchi tafakkur sifatining o'sishi bo'yicha.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish shartlari. Ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish omillaridan biri, ularga ijodiy muhit va sharoit yaratib berishdir. Bir necha mualliflar Dj. Smit, Nikitin va Ya.Kerrol, larning ilmiy ishlarida ijodiy qobiliyatlar rivojlanishining 6 asosiy shartlarini ajratish mumkin.

Birinchi muhim shart - ta'lim oluvchiga ijodiy qobiliyatlarni rivojlanishini tezlashtiradigan sharoit yaratib berish. Ta'lim oluvchiga shunaqa muhit bilan qamrash kerakki o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida eng ko'p ijodiy faoliyatni rivojlansin.

Ikkinchi eng muhim shart-ijodiy jarayonning o'zidan kelib ijodiy qobiliyati rivojlanishi uchun maksimal kuch sarflash. Gap shundaki, qobiliyatlar shunda rivojlanadiki odam o'zining faoliyati davomida qo'lidan keladigan, qodirligidan ham yuqori uyning shift"igacha bo'lgan marragacha etishi va uni yana va yana ko'tarishi kerak.

Uchinchi shart shundan iboratki, bunda ta'lim oluvchida ijodiy faoliyatni tanlashda katta erkin sharoit yaratib berish. Faqat shundagina ta'lim oluvchining qiziqishi kuchayadi, emotsional fazilatlari o'qadi, chunki aqlni bosim ostida jilovlash o'quvchini charchashiga sabab bo'ladi.

Azaldan ma'lumki, ijod uchun juda qulay psixologik sharoit va katta bo'sh vaqt kerak, shundan kelib chiqib beshinchi shart bu-jamoada do'stona muhit yaratish.

Pedagog o'quvchi uchun xavfsiz psixologik baza yaratib berishlari kerak. Real hayotga to'g'ri kelmaydigan biror bir g'oyani o'quvchi aytsa, unga to'g'ri yondashish, uning muvaffaqiyatsizligiga hamdardlik bildirish, uni tushunish kerak bo'ladi.

Lekin faqatgina qulay sharoit yaratish emas, g'arb psixologlari aytishlari bo'yicha, avvaldan bolalik paytidan ijodkorlikni shakllantirish yo'lida unga halol bermaslik, balki umumta'lim maktablarida bolaning o'z fikrini erkin ayta olishda qulaylik yaratish kerak.

Ta'lim oluvchilar ijodiy qobiliyatining o'sishida mahsuldorlik faqatgina maqsadining jarayonida, qator bir pedagogik masalalarni maqsadga muvofiq hal qilsagina samara bo'ladi. Mazkur ishda berilgan mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlarni o'rganib turib, biz ijodiy qobiliyat tashkiliy qismlari asosiy yo'nalishlari va pedagogik masalalarni aniqlashga harakat qildik.

Ta'lim sharoitida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning eng asosiy pedagogik masalasi dialektik va tizimli fikrlashni shakllantirish jarayonidir. Faqatgina shu sifatlar tafakkurni izchil, betakror va mahsuldor qiladi.

O'zaro bog'liqlikda olib qarash – bu bir ko'rishda bir-biriga o'xshamagan predmetlarning bir – biriga bog'liqlik va o'xshash tomonlarini ko'ra bilish qobiliyati.

Ifodalash qobiliyati rivojlanishda fikrlash betakror va izchil bo'ladi. Bundan tashqari katta miqdordagi bog'liqni ifodalash tezlik bilan xotiradan eng muhim



axborotni ajratib beradi. Ifodalash qobiliyatini rivojlantirishda maxsus o'yinlarni qo'llash mumkin. Biz o'z darslarimizni tez-tez o'yinli metodlarni ishlatib turamiz.

Ko'p hollarda o'yinlar doirasida yangiliklar va g'oyalar paydo bo'ladi. Dialektik fikrlash – har qanday tizimda qarama-qarshilikni ko'ra bilish, ularni tuzatish va muammo echimini topishni ko'ra bilishdir. Bu iqtidor tafakkurning sifati hisoblanadi.

Ijodiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish masalalari bir qator tadqiqotlarda o'rganilgan.

Dialektik tafakkurni shakllantirishni pedagogik masalalariga quyidagilar kiradi:

Har qanday predmet va hodisada qarama-qarshilikni aniqlab olish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Qarama-qarshiliklarni echa bilishni shakllantirish. Ijodiy tafakkurni shakllantirishning yana bir sifati bu tizimlilik.

Tizimlilik – bu predmetni har tomonlama yaxshi bir tizim sifatida ko'rish, har tomonlama bog'liqliklarda uni qabul qilish; o'zaro bog'liqliklarni rivojlanishning qonun va hodisalarda ko'ra bilishdir.

Tizimlilik predmetlarining ulkan xususiyatlarini ko'ra bilish, qismlarda ularning bog'liqlik poonasini, boshqa tizimlar bilan aloqasini ko'rish tushunishni o'rgatadi. Tizimli tafakkur o'tmishdan hozirgacha bo'lgan qonuniyatlarni o'rganadi va kelajakda buni qo'llaydi.

Ijodiylikni shaxs kabi shakllantirish uchun, faqat xulq-atvor xossalrigina emas, maxsus tarzda shakllantirish muhiti talab etiladi. Ijodiylikning rivojlanish “lokal” metodikasi deb ataluvchi (masalan, standart bo'lmagan masalalarni echishi), so'zsiz foydalidir. Biroq ularni qo'llash natijasida o'qitilayotganlar echishning yangi usullarining ba'zilarini o'rganmoqda va o'rganilgan harakatlarni oxirida ko'rsatmoqda (masalan, intellektual olimpiadalarda qatnashuvchilar uchun terma komandalarni maxsus trenirovka o'tkazishda). Bunday holatda ijodiylik, belgilangan sharoitlarda tashqi ta'sirlariga javoban namoyon bo'ladi, sub'ektning

shaxsiy talablari natijalari emas. Xuddi shuning uchun, ijodiylikni shaxs xosligidek shakllantirish uchun, o'qitilayotganlarga har tomonlama tizimli ta'sirni ta'minlovchi maxsus muhit kerak. "Yagona ta'lim axborotlar muhitining 2002-2006 yillar uchun rivojlanishi" o'quv yurtlarda muhitni shakllantirishni faraz qiladi, bu ijodiylikni shakllantirish uchun zarur bo'lgan sifatlarga to'liq ega bo'lgan muhitdir.

Reglamentlashtirmaslik quyidagilarga ta'minlanadi: ATO'ga bazalashgan, distantsion va ochiq ta'lim elementlarini keng joriy etish bilan; elektron resurslari bilan mustaqil ishlarni keng qo'llab-quvvatlash evaziga individual reja bo'yicha ishlash imkoniyatlarini o'qitilayotganlarga berish bilan; zamonaviy kommunikatsion texnologiyalar yordamida pedagoglar bilan erkin, reglamentlanmagan, asinxron muloqot bilan (elektron pochta, elektron konferentsiya).

Potensial ko'p variantlilik zamonaviy o'quv yurtining ma'lumotlar ta'lim muhitida majburiy xarakteristika hisoblanadi. Ko'p variantlilik mazmunli rejada erishiladi: mediatexa, elektron kutubxona, internet tarmog'i bir-ikkita darslikni emas, balki o'rganilayotgan muammoning borining har xil nuqtai nazardan iborat ko'pgina materiallardan iborat darsliklarni taqdim etadi. O'qitilayotganlar uchun avtomatik tarzda tarjimon dasturi keng tarqalganligi sharafiga til to'sig'i ham olib tashlanadi. Zamonaviy elektron nashrlar (ta'limiy, dasturlarni modellashtiruvchi), ma'lumotlarni taqdim etilishi ko'p variantlikni ham ta'minlaydi – matn, grafika, tovush, video. Ma'lumotlarni vizuallashtirish o'ng tomonlama sharning fikrlashini rivojlantirishga imkon beradi, obrazli ma'lumotlarni xush ko'ruvchi o'qitilayotganlar uchun, juda ham zarur deb hisoblanadi.

Ijodiylik faoliyatining namunalari va ularning natijalari o'quv yurti va Internet global tarmog'i ma'lumotlar ta'lim muhiti sharafiga erishish mumkindir. Bu elektron konferentsiya, virtual seminarlar va forumlarning materiallari, davriy ilmiy elektron nashrlar, etakchi olimlarning Web-betlari-personal va ilmiy markazlarning Web saytlari. Distantsion olimpiadalar, konkurslar, virtual ilmiy tadqiqot laboratoriyalar keng ommaviylikka ega bo'lmoqda. Ko'p hollarda bunday

laboratoriya yoki ilmiy markaz strukturasi (tuzilishi) bilan tanishish mumkin, lekin ularning ishlarini davriy hisobotlar va olingan natijalar bayonida aks etgan ishlar dinamikasida ko'rish mumkin. O'quv yurtlarining saytlarini shakllantirish amaliyotiga o'quvchilarning eng yaxshi ishlari (publikatsiyalari) ham kiradi (insholar, esse, referatlar, kurs va diplom ishlari).

Ijodiy qobiliyatning rivojlanishiga ko'maklashuvchi ishlarning shakl va uslublari. Ijodiy shaxs deb, o'zini qabul qilishi, ijodiy aktning muhim shartlaridan biri deb, hisoblanadi (san'at dunyosidagi insonlar kasanachi tamg'asidan qo'rqishadi, "erdagi" kasblar- vakillarining birortasi uchun eng yaxshi maqtov- o'z ishining artisti deb, uni atashdir). Bunda o'zining faoliyat natijalariga (tanqid) salbiy munosabatda bo'lishi mumkin, lekin bir shart bilan- buni faoliyat jarayonida bajarish mumkin mayli tanqid faqat shunda namoyon bo'ladiki, yangisi taklif etilgan yoki tuzilgan paytda, uning tug'ilajak vaqtida emas. Bu ma'noda u o'z ishchanligiga ishonchi – insonning ijodiy qobiliyatini amalga oshirish uchun eng muhim shartdir. (Bu sezgini, boshqa odamlar oldida yuksakligini namoyon etishga harakati bilan chalkashtirish kerak emas).

Bugungi kunda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish vositalaridan biri - estetik tasavvurni tarkib toptirishning pedagogik nazariya va ta'lim amaliyotidagi ahvoli qanday? U bugungi kun ijtimoiy va pedagogik talablariga nechog'lik javob berayapti? Mazkur muammoning qaysi jihatlari hozirgi kunda rivojlanib borayotgan zamon oqimi, ruhidan ortda qolmoqda ekan? Bu jarayonni zamon bilan hamnafas bo'lishi uchun nimalar qilish lozim? Mazkur savollarga javob topish tadqiq etilayotgan muammoning holati, ahvolini, darajasini aniqlash imkonini ochishga yordam beradi.

Mamlakatimizda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish, ularda muayyan ijodiy qobiliyat elementlarini, xususan estetik tasavvurlarni shakllantirish masalalarini ijtimoiy jixatdan o'rganish va uni pedagogik tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda ta'kidlab o'tish joizki, estetik qadriyatlarni ko'p qismi o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra turli xil tavsifga ega. Zero, ular avvalo san'atga, madaniyatga daxldor bo'lganligi uchun ko'p hollarda umuminsoniy qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Bu borada ayniqsa, Yaponiya, Rossiya kabi mamlakatlarda katta ijodiy tajribalar to'plangan. Hususan, uzoq yillar mobaynida Rossiya Pedagogika fanlari akademiyasida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni estetik tarbiyalash muammolari maktabgacha ta'lim institutida kompleks tadqiqotlar tizimi tarzida, badiiy tarbiya institutida aspirant va ilmiy tadqiqotchilarning hususiy tadqiqotlar tarzida olib borilgan izlanishlar natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik faoliyatning turli yo'nalishlariga jalb etish masalalari ishlab chiqilgan. Ayniqsa, bu borada XX asrning 70-80 yillarini barakali, samarali davr sifatida e'tirof etish joiz.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy va estetik tarbiyalashda milliy qadriyatlarining o'rnini tadqiq etilar ekan, pedagog olim M.Inomova bolalarga beriladigan odobda yaxshilik bilan yomonlikni farqini bilish, foyda bilan zarar orasidagi tafovutni anglashga o'rgatish, shakllantirish ham yaxshi bilan yomon (go'zallik va xunuklik) o'rtasidagi farqni anglash negiziga qurilishi lozimligini ta'kidlaydi.

SHarq mutafakkirlarining bola tarbiyasiga oid qarashlarini M.Inomova tahlil etar ekan, ularda san'atga ham alohida e'tibor qaratilganligini e'tirof etadi: "barcha mutafakkirlar ijodida talqin etilganligi kabi YUsof Xos Xojibning ijodida ham yoshlarga san'at, hunar o'rgatish borasidagi fikr asosiy o'rin egallaydi. U farzandlarni hunarli qilish bilan ularni chiroyli qilishimiz mumkinligini, shuning bilan birgalikda turli-tuman hunarlarni o'rganmaslik-tubanlik belgisi ekanligini ta'kidlab, san'at, hunarni oqqushga o'xshatadi. Humoqush soyasi tushgan odam davlat va saodatga erishganiday, hunar va san'at egalari ham barhayot bo'ladilar".

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda o'zbek xalq pedagogikasi manbalaridan foydalanish imkoniyatlarining tadqiqida M.Inomova «... o'zbek halqi orasida kundalik ehtiyoj amaliga aylangan amaliy san'at turlaridan o'ymakorlik, ... zargarlik, zardo'zlik, kashtado'zlik, qulolchilik, maishiy buyumlar

... yasash, tikish kabilar o‘zbek oilalarida, avvalo ularning moddiy ehtiyojlarini qondirish bo‘lsa, ikkinchidan, farzandlarini hunarga, kasbga o‘rgatishda, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim tarbiya vositasi sifatida foydalanib kelingan» ligini ta’kidlab o‘tadi. Bularga qo‘shimcha qilib shuni ta’kidlash joizki, bu mashg‘ulotlar avvalo estetik tarbiya manbai sifatida ham muhimdir.

Pedagogik nazaridagi bo‘shliqqa muvofiq o‘quvchilarda estetik dunyoqarashlarini shakllantirish yo‘nalishidagi holat, mavjud ahvolning tahlili amaldagi bir qator milliy me‘yorlardan, tarixan shakllangan milliy an‘ana va qadriyatlardan chetga chiqish hollari mavjudligini ko‘rsatadi. Bu chetga chiqishni aslida milliy e‘tiqodimiz, madaniy, badiiy-estetik qadriyatlarimizga hurmatsizlik, ayrim g‘aribona urf-odatlariga nisbatan qarshilikning yo‘qligi deb baholash to‘g‘ri bo‘ladi. Bu e‘tirofni qanchalik haqiqat ekanligini isbotlash uchun bir-ikki misol keltirish kifoya qiladi..

Birinchi misol. Kiyinish madaniyati. Endilikda nafaqat yirik shaharlarda, balki joylardagi kichik shaharlarda hattoki qishloq yoshlari o‘rtasida milliy madaniyatimiz, axloqiy me‘yorlarimizga mutloq zid bo‘lgan «evropacha», aslida hayosizlik tomoshasidan boshqa hech narsa bo‘lmagan kiyimlar kiyib yurish odatiy holga aylandi. Achinarlisi, ular estetik talablarga mos shakl sifatida idrok etilib, ko‘pchilik aynan shu shaklga intilmoqda. Bu teskari intilishni oldini olish avvalo oiladan boshlanishini yodga oladigan bo‘lsa bu boradagi amaliy ishlarmiz ko‘ngildagidek emasligini ko‘rsatadi.

O‘quvchilarda estetik tasavvurlarni takomillashtirishning tarkibiy qismi - kiyinish estetikasi haqidagi qiziqishlari, intilishlarini, ularning savollarga javoblari, ayrim tasviriy faoliyat namunalariidagi libos dizayni elementlarini milliy urf-odatlar, an‘analardan uzoqlashib borayotganligini ko‘rsatadi.

Barcha sohalarda bo‘lganidek, taraqqiyot soxalarida milliy tassavvurlarni boyitishda foydalanish, integratsion jarayonlarni ta’limiy va tabiiy jarayonlarga tatbiq etish lozim . Bu holat badiiy-estetik ta’limga, shu jumladan o‘quvchilarda estetik tasavvurlarni shakllantirishga ham taalluqlidir.

O'quvchilarni estetik dunyoqarashlarini shakllantirishda tavsiriy faoliyat nazariyasi va metodikasining tadqiqotchilari E.I.Vasil'eva, R.T.Kazakova, V.B.Kosminskaya, N.B.Xalezova bu yoshdagi bolalarning estetik tasavvurlarini shakllantirishda tasviriy faoliyatning o'rnini tatqiq etib, bu jarayonning 15 funksiyasini alohida ko'rsatib o'tadi. Bular estetik, kommunikativ, bilish, ma'rifiy, g'oyaviy, tarbiyaviy, tartibga soluvchi, ijtimoiy o'zgartiruvchi, madaniy, aksiologik, kompensatsion, gedonistik, tibbiy (sog'lomlashtirish) , ijtimoiy harakati motiv va nihoyat, prognostik tamoyillaridir. Bu funksiyalarni alohida-alohida tahlil etadigan bo'lsak, san'atni shaxsni shakllantirishdagi, uning badiiy-estetik olamining tarkibiy qismini butlanib borishidagi o'rnini anglaymiz.

San'at boshqa estetik qadriyatlar tizimida shunisi bilan farqlanadiki, har bir davrning o'zida mavjud va o'tmishdan qolgan an'analarni aks ettirish va kelajak uchun etkazuvchi vosita vazifasini o'taydi. San'atni idrok etish orqali shaxs va jamiyatning estetik ongi tarkib topadi. U san'atni idrok etadigan, anglyadigan va undan estetik zavq oladigan bo'ladi. Estetik ong har bir shaxsda estetik qadriyatlarni yaratishga yo'llaydi. Bu san'atning estetik funksiyasi hisoblanadi. Bu funksiya estetik tasavvur elementlarini o'zlashtirishning dastlabki bosqichi bo'lib, uning uchun oiladagi estetik muhit muhim ahamiyat kasb etadi.

San'atning kommunikativ funksiyasi ikki-uch yo'nalishda kuzatiladi. Birinchidan, san'at orqali bir shaxs ikkinchi shaxs bilan, binobarin jamiyat bilan muloqotda bo'ladi. Shu tariqa uning ijtimoiy tajribasi ortib boradi. Ikkinchidan, san'at orqali u o'z zamonasining estetik hodisalari, qadriyatlari bilangina emas, balki ajdodlarning, umumbashariy qadriyatlarning eng sara namunalari bilan tanishish orqali estetik qadriyatlar yaratilishining tarixiy yo'nalishidagi eng taraqqiyparvar hususiyatlar bilan tanishadi. Uchinchidan, san'at olami, uning mazmuni va funksiyasini o'zining shaxs sifatida shakllanish jarayoniga safarbar etadi. O'quvchilarda estetik ongni uni kamol toptirishda amalga oshiradigan pedagogik tarbiya ishlarimizdan biri bo'lib ana shu tomonlarni doimo yodimizda saqlab, uni amalga oshirishimiz lozim .

## **1-bob bo'yicha xulosa**

Ijodiylikning namoyon etilishini hisobga olib (ularning susayishi yoki kuchayishi) ko'pgina tashqi shartlar ta'siri bilan tasdiqlangan, bunda asosiy rolni o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllarini to'g'ri tanlashdadir. Pedagoglar o'qitilayotganlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z maqsadlari deb qo'yishganlar, divergentlik fikrlashga alohida diqqatni ajratishlari shart. Tezlikni, egiluvchanlikni, originallikni va aniqlikni fikrlashda rivojlantirish imkoniyatini beruvchi maxsus topshiriqlarni tanlash bilan barcha pedagog ijodiy faollikni rivojlantirishga va stimullashtirishga bir qator tekshirilgan umumiy yondoshish yo'llarini qo'llashi mumkin.

1. Yaxshi (qulay) atmosferani ta'minlashi. O'qituvchi tomonidan ochiq ko'ngillik, o'qitilayotgan nomiga mulohazalar va tanqidiy baholashdan bosh tortish divergent fikrlashni erkin namoyon etishga ko'maklashadi. Ijodiylikni namoyon bo'lishida ijtimoiy oziqlantirish.

2. Ta'lim muhitini yangi ob'ektlarning turli tumani bilan boyitish.

3. O'qitilayotganni qiziqtirish omillari. Unga savollar berish imkonini taqdim etilishi. Original g'oyalarni aytuvchilarni rag'batlantirish.

4. Muammolarni hal etishda, ijodiy yondoshishni foydalanishda pedagogning shaxsiy namunasi. Ijodiylikning boshqa pozitiv namunalarning mavjudligi. Ijodiy xulq-atvorga o'xshatish uchun shartlarini tuzish.

## **II BOB**

### **PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI O'QUVCHILARNING IJODIY VA INTELLEKTUAL QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH**

#### **II.1.O`quvchilarning ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni tashkil etish hamda o'tkazish usul va shakllari.**

Ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan talaygina ilmiy ishlar olib borilayotgan bo'lsada, ta'lim oluvchilarning ijodiy ishlash qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishga zamonaviy ta'lim talabi bo'lib qolmoqda.

O'qitish jarayonida o`quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish muammosi murakkab va ko'p qirralidir. Shuning uchun o`quvchilar ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarini oshirishda ularning kasbga bo'lgan qiziqishi hamda qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, o'qitish jarayonida o`quvchilar ijodiy qobiliyatlarini oshirish va ularning amaliy ko'nikma, malakalarini shakllantirish uchun ta'lim jarayoniga yuqori darajali mala-kaga ega bo'lgan, qobiliyatli hamda mohir ustalarni jalb qilish, ularni ham ishlab chiqarishning zamonaviy texnika va texnologiyalari bilan tanish-tirish zarur. Ta'lim jarayoni paradigmasi o'zgarayotgan sharoitda o`quvchilarning mashg'ulotlarda bilimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish va nazorat qilish emas, balki mustaqil ta'limning roli o'sib bormoqda.

Bugungi kunda ta'lim mazmunining o'zgarishida qo'yiladigan talablar o'zgaradi, balki o'quv muassasasida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi kerak bo'lgan o`quvchilar, hamda o'qituvchining o'quv jarayonidagi faoliyatiga qo'yiladigan talablar ham o'zgaradi. Ta'lim sharoitida o'qituvchi pedagogik faoliyatni nafaqat rejalash-tirish va loyihalashtirish, balki o`quvchilarning o'quv faoliyati tuzilmasi hamda mazmunini ishlab chiqishi, ijodiy ishlash qobiliyatini shakllantirish kerak. Shuningdek, o`quvchilarning bilimlarni mustaqil izlash hamda topish, nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega



bo'lib, ta'limning bunday tashkil etilishi o`quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishi oshadi, bilim olishlari faollashadi.

Ta'lim jarayonida o`quvchilarni ijodiy izlanish va ishlashga, kasbiy hamda hayotiy muammolarni mustaqil echishga o`rgatish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, hozirgi davrda texnika va texnologiyalarning kun sayin o`zgarib borishi hamda bilimlarning yangilanishi zamonaviy sharoitlarga moslashish ko'nikmasiga ega bo'lish, yangi bilimlarga intilishni talab etadi.

Bizning fikrimizcha, o`quvchilarning erkin va mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish malakalarini shakllantirishni, ularning ta'lim darayonida faol ishtirokini ta'minlaydigan zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlarini qo'llash, o`qitish jarayonida ijodiy muhitni yuzaga keltiradi, o`quvchilar faolligini oshiradi, o`qituvchi esa tayyor bilimlarini etkazuvchi emas, balki o`quvchilarning bilimlarini mustaqil o`zlashtirilishi uchun sharoit yaratib beruvchi, ta'lim jarayonining yo'naltiruvchi yoki maslahatchisiga aylanadi.

Ta'limda pedagogik texnologiyalarning quyidagi 5 guruhga ajratadilar:

Pedagogik texnologiyalarning 1-avlod texnologiyasi an'anaviy metodlar bo'lib, ma'ruza, suhbat, kinodars, amaliy ishlar darsi, mustaqil ish, seminar, nazorat ishi, dars-trening, vizual-ma'ruza kabi dars turlaridan foydalaniladi. O`zlashtirishi past bo'lgan ta'lim oluvchilar uchun konkurs-dars, musobaqalar juda ham foydali, chunki bunda har bir ta'lim oluvchiga darsga qatnashish hissi tug'iladi. Agar dars qiziqarli, tez o`zlashtiriladigan bo'lishini xoxlasak, unda katta dunyosiga kichkinagina bir tuynuk bo'lsin uchun, albatta, biror bir sirli, noma'lum narsani kiritish kerak. Buning uchun mantiqli o`zaro hodisalar bilan bog'liq elementlardan foydalanaman. Bu erda eng murakkabi – axborotlar yig'ishda, tanlashda deproduktiv xarakterga ega bo'lmagan rivojlantiruvchi topshiriqlar tanlash, nazorat darslarida ham topshiriqlarning kichik bir qismini kiritsak, bular yordamida nafaqat o`rganadilar, balki ijodiy tafakkurni oshiradilar. Zamonaviy

texnologiyalarning guruhiga kiruvchi “Blokli-modulli”si qo’llanilganda ta’lim oluvchini eshitishga ta’lim oluvchini majburlamaydi, mashg’ulot, topshiriqni bajarishda ularni “Qo’llaridan ushlab” majburan ishlatilmaydi. Ancha yildan beri biz mazkur texnologiyani qo’llab dars o’tamiz. Albatta, avvaliga hech nima silliq, oson kechmadi ta’lim oluvchilar mustaqil ishlashga tayyor emasdilar va modulli darslarni tayyorlashga juda ko’p vaqt sarflanardi, lekin keyinchalik bu metod o’z samarasini bera boshladi, hatto eng past o’zlashtiruvchi, darsga befarq ta’lim oluvchilar ham darsga, o’zlarining yutuqlari bilan qiziqqa boshladilar.

3-avlod texnologiyasi “Yaxlit bloklilar” guruhiga ta’lim oluvchilarni bilim olishga qiziqtirish, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularni faollashtirishga yo’naltirish texnologiyasi 4 guruhga kiritilgan. Bu guruhga asosan faol metodlarni qo’llab o’qitish texnologiyalari: ma’ruza, suhbat, amaliy ish turlari kiradi. Texnologiyaning beshinchi avlodi biz uchun juda qiziqarli. Loyihali faoliyat turi – ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning bir metodidan biri. Bu faoliyat turi ta’lim oluvchilarda mustaqil bo’lishni o’rgatadi, qator insoniy sifatlarini rivojlantiradi. Zarur bo’lgan ma’lumotlarni topishda global informatsion tarmoqdan foydalaniladi.

Ta’lim oluvchilarga loyiha topshiriqlari beriladi. Ular erkin va mustaqil holda loyihani quyidagi bosqichlarda amalga oshirish taklif qilinadi:

- muammo qo’yilishini tushunib olish;
- ma’lumot yig’ish;
- muammo echimining turli jihatlarini tahlil qilish;
- optimal echimlarini tanlash;
- eng muhim echimi bo’yicha qaror qabul qilish;
- yakuniy xulosa.

Loyihali texnologiyalarda bilim va ko’nikmalarni o’zlashtirishning asosini mustaqil ish harakatlar va ijodiy faoliyatlar tashkil etadi. Ijodiy loyihali topshiriqlarni turli darajalarda ishlab chiqish va amalda tatbiq etish jihatlarini bir qator ilmiy ishlarda o’rganilgan.

O'tkazilgan nazariy va amaliy izlanishlar, hamda ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini o'rganish shundan dalolat beradiki, biz bu-gun o`quvchini mustaqil bo'lishga va o'rganishga qanday qilib o'rgatishimiz ha-qida o'ylashimiz kerak.

Masalan, o'quv xonasida hamma band. O`quvchilar guruh-guruh bo'lib ishlashmoqda. O`quvchilar uchun o'quv adabiyotlari etarli. Bir o`quvchi nima-dir o'qiyapti. Ikkinchisi berilib daftarlariga bir nimalarni yozmoqda. Umuman o'quv xonasida hamma qandaydir ish bilan bandligi sezilib tu-ribdi. Ushbu dars shaklini kuzatib beixtiyor savol tug'iladi – o'qituvchi qani, agar o`quvchilar mustaqil ishlayotgan bo'lsalar o'qituvchi nima bilan mashg'ul? U o`quvchilarni muntazam nazorat qilish va ularga nima qilish kerakligi to'g'risida qat'iy ko'rsatmalar berish kerak emasligiga qanday qi-lib erishdi. Bu holatda shunday fikr tug'ilishi mumkin. “Qanday ongli o`quvchilar! O'qituvchining omadi bor ekan”. Ammo real ta'lim sharoitida o`quvchilarning ongli va faol bo'lishlari bu-o'qituvchi ishining samarasidir.

Masalan: Mustaqil bilim olish va o'rganishda o`quvchilar harakati guruhdagi o`quvchilar quyidagi tartibda bo'lishi mumkin:

O`quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi (odatda 3-4 ta)


Har bir kichik guruh o'tilgan mavzular bo'yicha bir nechta savol (yoki topshiriq)lar tuzadilar.

So'ngra guruhlar o'zaro savollar bilan almashadilar.

Guruhlar “raqib” guruh tuzgan savollarga javob beradilar va eng ko'p savolga to'g'ri javob bergan guruh muvaffaqiyat qozongan deb hi-soblanadi.

Demak, ta'lim muassasasi o`quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni samarali tashkil etish o'quv jarayonining muhim omillaridan biri bo'lib hisob-lanadi. Mustaqil va ijodiy ishlash jarayonida o`quvchida mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi natijasida, o`quvchida jarayonlar va hodisa-lar, ob'ektlar haqida bilimlarni tizimlashtirish ularni chuqur o'rganish hamda tegishli qarorlar qabul qilish, nazariy bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalari shakllanadi. Biz tomondan oliy ta'lim

muassasalari o`quvchilarining maxsus fanlardan mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish jarayoni modeli (1-rasm) ishlab chiqildi. Ushbu modelning har bir komponenti mohiyatiga to'xtalamiz.



**1-rasm. O`quvchilarning ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish jarayoni modeli.**

Umumiy o'quv maqsadlari. O'quv maqsadlari muayyan ta'lim jarayoni yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, hatti-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy top-shiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulqni belgilaydi. Har bir fanning o'quv maqsadlari to'g'ri belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Umumiy o'quv maqsadlarning mazmuni yo'naltiruvchi maqsadlardan kelib chiqib belgilanadi. Umumiy o'quv maqsadlari yo'naltiruvchi maqsadlarni aniqlashtiradi. Umumiy o'quv maqsadlari ta'lim oluvchi muayyan maxsus fan bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka haqida umumiy tasavvurni beradi. Masalan o'quvchilar ushbu fanni o'zlashtirgandan keyin quyidagi nazariy bilimlarga ega bo'lishlari kerak:

Nazariy, amaliy va seminar mashg'ulotlar.

Nazariy, amaliy va seminar mashg'ulotlarni o'tkazish davomida o'qitish jarayonining ko'zda tutilgan ketma-ketligini saqlab qolish hamda rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlash lozim.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish uchun mashg'ulotlarning dars ishlanmasi hamda texnologik xaritasi ishlab chiqilishi kerak. Har bir mashg'ulot bo'yicha dars ishlanmalari va texnologik xaritalarni ishlab chiqish o'quv jarayonini to'la-qonli loyihalashtirish hamda samarali tashkil etish imkonini beradi.

Didaktik vositalar va materiallar.

O'quvchilarining mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, o'quv-uslubiy adabiyotlar, didaktik materiallar bilan ta'minlash juda muhim.

O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishda elektron ta'lim resurslaridan maksimal foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'quv va didaktik materiallarga qo'shimcha tarzda tasviriy-vizual vositalar (fotosuratlar, rasmlar, chizmalar, grafiklar . . .) ham kiradi. Ular umumiy va keng qamrovli tasavvurlarni vujudga keltirishni osonlashtiradi. Shuningdek, tasviriy tasavvurlarni

shakllantiradigan audio-vizual vositalar texnologik jarayonlar va funktsiyalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad soha va usul-larga mos holda tanlash muhim o'rin tutadi. O'qituvchi o'quv va ko'rsatmali vositalarni ishlata olishni, ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni mustaqil hal qila olishi kerak.

O'quv materiallari bir paytning o'zida didaktik materiallar sifa-tida, ya'ni o'qitish va o'rganish uchun ishlatiladi. Agar o'quv va didaktik materiallar etarli bo'lmasa, u holda o'qituvchi tomonidan ularning tanlanishi hamda nazariy, amaliy yoki seminar mashg'ulotlar maqsadiga moslashtirib tayyorlanishi kerak.

Ta'lim shakllari.

O'qitish jarayoni jamoaviy, kichik guruhlar va individual shaklida olib borilishi tavsiya etiladi. Jamoaviy ta'lim shaklida o'quvchilar guruhi orasida raqobat muhitini shakllantirish, bir-birining bilimni to'ldirish imkoniyatlari kengayada. Mashg'ulot topshiriqlari asosan yangi mavzu mazmunini ochib beruvchi aloqador fanlarda o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar, mavzulararo uzviylikka yo'naltirilgan bo'ladi. Kichik guruhlarda ishlash maxsus bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda, shuningdek, o'quvchilarda mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo'llaniladi. Bir nechta o'quvchilar birgalikda ishlagan paytda, ularning shaxsiy xususiyatlari va xarakterlari orasida o'zaro hamkorlik vujudga keladi.

Yakka tartibda esa asosan mustaqil ish mashg'ulotlarini olib borish tavsiya etiladi.

Aniq o'quv maqsadlar.

Mavzular bo'yicha aniq o'quv maqsadlari mazmuni o'z navbatida umumiy maqsadlardan kelib chiqadi. Aniq o'quv maqsadlar aniq ifoda etilganligi tufayli ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Aniq o'quv maqsadlari bir mavzuga oid nazariy va amaliy mashg'ulot yoki mustaqil ishlar bo'yicha o'lchanishi mumkin

bo'lgan aniq yakuniy bilim, ko'nikma, malaka hamda xulqni ifodalaydi. Aniq o'quv maqsadlari odatda ta'lim muassasalari o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi. Mavzu bo'yicha ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi o'quv maqsadlari qo'yiladi.

O'qitish va o'rgatish jarayoni. O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar dars ishlanmalari hamda texnologik xaritalari asosida o'qitish jarayoni tashkil etiladi. Mashg'ulotlar asosini mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini bajarish tashkil etadi. Har bir mashg'ulot o'quv maqsadiga to'la erishish uchun qo'shimcha mashg'ulotlar ham o'tkazilishi mumkin.

Pedagogik va axborot texnologiyalar asosida o'qitish.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarni izlanuvchanlik, ijodiy va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda ilg'or pedagogik hamda axborot texnologiyalardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida axborot texnologiyalari bilan zamonaviy pedagogik texnologiyani birgalikda ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'qitish jarayonida juda yaxshi samara beradi. Zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o'qitishning interaktiv metodlari yordamida mustaqil ta'lim olishni yo'lga qo'yish mumkin bo'ladi. Ta'lim oluvchilar bilimini har xil turdagi mashg'ulotlar bo'yicha xolisona baholash mezonlari, tanqidiy fikrlash va ijodni rivojlantirish, interaktiv ta'lim bo'yicha metodik ishlanmalarni yaratish zamon talabidir.

Informatsion texnologiyalarni qo'llash sharoitida o'qituvchi faoliyati o'zgaradi. Bu esa o'qituvchining yangi pedagogik muhitda yangi o'qitish vositalarini qo'llab, o'quvchilarga tayyor bilimlarni berish emas, balki ularga yangi bilimlarni mustaqil izlash va topish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.<sup>5</sup>

Ta'lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llab o'qitish tajribalari shuni ko'rsatadiki, fanlardan ma'ruza, amaliy, seminar mashg'ulotlar hamda mustaqil ishlash vaqtlarida modellashtiruvchi dastur yordamida turli

---

<sup>5</sup> Lvova Yu.Ya. Tvorcheskaya laboratoriya uchitelya. M., 1980.

hisoblashlar, mashqlarni bajarish imkoniyati yaratilishi kerak. Bu esa bo'lajak mutaxassisga texnologik jarayonlar bajarilishida real parametrlarni aniqlash imkonini beradi. O'z navbatida o'rganilgan materialni ta'lim oluvchilar mustahkamlaydilar.

Mustaqil va ijodiy ishlar.

O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishda mustaqil ishlarning ahamiyati juda katta. Mustaqil ishlar o'quvchining umumiy rivojlanishiga va kasbiy mahoratini o'stirishga xizmat qilishi kerak. Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil qilish tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyatga ham ega bo'lishi kerak. Tarbiyaviylik ahamiyati shundaki o'quvchi o'z bilimini oshirish va mustahkamlash uchun o'zini-o'zini tarbiyalab boradi. Ta'limiy ahamiyati esa o'quvchi bo'sh vaqtdan samarali foydalangan holda mustaqil bi-lim olish jarayonining shakllanishiga olib keladi. O'quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish va bosh-qarish o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Mustaqil va ijodiy ishlarning turlari, shakllarini tanlashda "od-diydan-murakkabga" hamda "umumiydan-xususiya", "mavhumdan-aniqlikka" tamoyillariga amal qilish lozim. Mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini ishlab chiqishda har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlari, tushunuvchanlik, o'quv materialini o'zlashtirish darajasi inobatga olinishi, shaxsga yo'nal-tirilgan o'qitish texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijodiy ishlashiga ahamiyat berish kerak. O'qituvchi o'quvchi bajaradigan mustaqil ishlarni hajmini aniqlab, bajarish uchun ularga aqliy mehnat qilish yo'llarini o'rgatadi hamda ishni bajarish jarayonida kelib chiqadigan kamchiliklar va xatoliklar bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Ta'limi muassasalarida mustaqil ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish hamda unga rahbarlik qilish uchun o'qituvchilar ayni vaqtda ham yaxshi pedagog, ham kasbiy mahorat hamda malakaga ega bo'lgan mutaxassislar bo'lishi kerak. O'quvchilarga berilgan savollar yoki topshiriqlar orqali ularning ijodiy



fikrlashlarni rivojlantirish, noma'lum yoki noaniq ma'lumotlar mohiyatini tushunish uchun mustaqil izlanishlarini vujudga keltiradi. Biz tomondan olib borilgan pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchining ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish, uning mustaqil bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishda mustaqil ish ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Lekin, auditoriyadan tashqari mustaqil ishni tashkil qilish birmuncha murakkab jarayon. Chunki bu jarayonda o'quvchi ijodiy yondoshgan tarzda fanlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan holda bajarishlari kerak.

Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash.

O'quvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish hamda baholash ta'lim jarayonining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini baholash emas, balki o'qitish jarayoni davrida o'quvchilar bilim olish va mustaqil ish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Bilim va ko'nikmalarni tekshirish hamda baholashning ta'limiy aha-miyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilishi to'g'risida o'quvchi va o'qituvchi muayyan ma'lumotga ega bo'ladi. O'qituvchiga o'quv-chilarning qaysi o'quv materialini yaxshi o'zlashtirilganu, qaysi ish etarli darajada o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu esa o'quvchining o'rganish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Baholash orqali o'quvchilarning o'quv materiallarini bilish, tushunish, xoti-rada saqlab qolish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z-o'zini baholash darajalari aniqlanadi.

Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni baholashning tarbiyaviy aha-miyati shundaki, bunda o'quvchilarning o'qishga qiziqishi, o'z yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, o'quv qiyinchiliklarni engish ishtiyoqi tug'iladi. Natijalarni baholash orqali butun ta'lim jarayoni tekshirilib ko'rilishi kerak. Bu bilan ta'lim jarayonida kutilayotgan o'quv maqsadiga erishilayotganlik darajasi tekshiriladi. Ta'lim berish davomidagi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni baholash o'quvchining o'zligini

anglashi uchun bir imkoniyatdir. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, o`quvchilarning mus-taqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini ham inobatga olib baholashda qu-yidagilarni e'tiborga olish muhimdir:

- o`quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash;
- ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash;
- o`qituvchi o`z faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish;
- joriy va oraliq o`zlashtirish darajasini aniqlash;
- baholash natijalari bo'yicha ota-onalarga ma'lumot berish;
- dastlabki bilim va ko'nikmalar ta'lim natijasini baholash;
- o`quvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun.

Baholashni quyidagi uch bosqichda o'tkazish tavsiya etiladi:

Boshlang'ich baholash ta'lim jarayoni boshida o`quvchilarning dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Bunday baholash natijalari orqali fanni o`qitish jarayonining mazmuni, metodlari va shakllarini tanlash imkoniyati yaratiladi.

Joriy (shakllantiruvchi) baholash muntazam ravishda o'tkazib bori-lishi lozim. U ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, samarasini tez-kor aniqlab borish, o`quv jarayonini muvofiqashtirish hamda ta'lim be-ruvchi va ta'lim oluvchi o`rtasidagi qaytar aloqani ta'minlash imkonini beradi.

Oraliq baholash fan asosiy bo'limlari yoki modullari bo'yicha mashg'ulotlar o'tib bo'lingandan keyin o`quvchilarning bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirganliklari baholanadi. Bu bilan o`quvchining bo'lim yoki model bo'yicha o`quv materialini qanchalik darajada o'zlashtirganligi haqida ma'-lumotga ega bo'linadi. Lozim bo'lsa o'zlashtirishi past bo'lgan o`quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar olib boriladi.

Ta'lim natijasi.

Yakuniy baholash o`quvchining fan bo'yicha o'zlashtirish natijalarini belgilangan mezon va standartlarga javob berishini aniqlaydi. Yakuniy baholash fanni o`qitish jarayonining yakunida o'tkaziladi. U joriy va oraliq baholash

natijalarini jamlaydi. Biz tadqiqotimiz doirasida o`quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi va ularni faollashtirishga qaratilgan faol metodlaridan foydalanishdir. Shuni ta'kidlash joizki, o`quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni erkin tarzda kechishi kerak. Shuning uchun ham ta'lim metodlari va shakllari shunday tanlanishi kerakki, o`quvchi qobiliyati majburiy holda emas, balki o`qituvchi turtkisi va maslahati bilan yordam ko`rsatishi natijasida erkin holda kechishi kerak. Faollashtirilgan o`qitish texnologiyasi sifatida - treninglar qo`llash tavsiya etiladi. Trening afzalligi shundaki, unda o`quvchi ijodiy faolligi va mustaqilligi yuqori bo`ladi. Har bir o`quvchiga o`zini namoyon ilishga, fikrini bayon etishga imkoniyat yaratiladi. O`quvchi hamkorlikda ishlashga, sheriklarini hurmat qilishga, boshqalar fikrini bo`lmaslikka o`rganadi.

O`quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ularga ijodiy topshiriqlarni bajartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy topshiriqlarni turli darajalarda ishlab chiqish tavsiya etiladi.

## **II.2. Boshlang'ich sinf o`quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni o`tkazish texnologiyasi.**

Boshlang'ich sinf o`quvchilarining ijodiy va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, pedagogik mahorat sirlarini puxta egallashlarida ilg'or pedagogik hamda axborot texnologiyalardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi.

Ana shunday o`qitish texnologiyalardan biri bu Assotsiogrammalar texnologiyasi hisoblanadi.<sup>6</sup>

Assotsiogrammalar metodi (xotira xaritalari) – o`qitishning kompleks metodik usuli bo`lib, o`quv-psixologik asoslarga tayangan holda bilimlarning o`rganish strukturalariga integratsiyasini osonlashtiradi.

Didaktik maqsadi. Ish holatini ko`ra olish uzoqligiga ko`maklashish, bilimlarni faollashtirish, xotirani chuqurlashtirish va yaxshilashdan iborat. Metodik maqsadi. Mustaqil ravishda kompleks bilimlar zahirasi ishlatiladi va

---

<sup>6</sup>Ziyomhammadov B., Tojiev M. Pedagogik texnologiya. T.; 2009. 103 b.

shaxsiy o'quv vaziyatini qabul qilish va uni to'g'ri baholash qobiliyati rivojlantiriladi.

Variantlari: tushunchalar xaritasi, o'rganish xaritasi, semantik tarmoqlar, ontologiyalar.

Belgilari va asoslari. Assotsiogrammalar metodi bilimlarni grafik tarzda ko'rsatish va strukturalash uchun qo'llaniladi. Bu metod o'quv-psixologik asoslarga, mavjud strukturalarga yangi kontseptsiyalar va tasavvurlarni integratsiyalashni tushunishga taalluqli bo'ladi. Bu metodni qo'llashda mavzudan markazdan chiqqan kabi keyingi g'oyalari va detallar shahobchalari ko'rsatiladi, ulardan o'z navbatida keyingi shoxalar chiqadi.

Tushuncha va metod 70-yillarda angliyalik Toni Buzan tomonidan taklif etilgan. Uning fikrlarining boshlang'ich nuqtasi bo'lib ta'lim oluvchilarning ko'pincha "mantiqiy o'ylaydigan" bosh miya chap yarim shari bilan ishlashi degan mulohaza bo'ldi. Shuning uchun, o'zining assotsiogrammalar metodi yordamida u o'quvchilarning bir xil tarzda ham chap, ham o'ng yarim sharlarini faollashtiruvchi ish va grafik ko'rsatish metodini ishlab chiqdi, chunki bu metod tasavvur-ijodiy fikrlashni va mantiqiy-analitik fikrlash orasida qaytar aloqani o'rnatadi.

Kelib chiqishi. Bu metod bilimlarni ierarxik va ko'rsatmali strukturalash hamda kompleks bog'liqliklarni vizualizatsiyalash haqida gap borilganda metod sifatida doim qo'l keladi.

Shuning uchun u ayniqsa:

umumlashtirishlarni ishlab chiqish;

kompleks sistemalarni ko'rsatish;

matnlar va tushunchalarni sistemalashtirish;

yozuvlar yoki o'quv materialini ko'rib chiqish;

loyihalarni rejalashtirish;

o'quv materialini mustahkamlash va chuqurlashtirish;

g'oyalarni yig'ish va strukturalash uchun foydalidir.

Qo'llanilish sohalari. O'quv mashg'ulotlarida bu metodni qo'llashning turli variantlari beriladi. Individual ish, guruh ishi yoki butun sinf ishtirokidagi mavzuni ishlab chiqishda bu metodni qo'llash mumkin.

Shartlari.

Metodni amalda qo'llash yordamchi vositalar sifatida quyidagilar kerak: oq, chiziqsiz qog'oz varag'i, qalam, o'chirg'ich va rangli qalamlar. Assotsiogrammalar albatta rangli bo'lishi shart emas, ammo rangli bo'lganda axborotni eslab qolish osonroq bo'ladi. Istalgan holatda assotsiogrammani slaydlarda, flipchartda, doskada yoki kompyuter dasturi yordamida amalga oshirish mumkin.

Assotsiogrammani ishlab chiqishda harakat tartibi quyidagicha bo'ladi:

1. Mavzu: varaq o'rtasida o'zingizning asosiy mavzuingizni yozing yoki chizing. Albom formatida ishlang, bu sizga ko'proq joy beradi.

2. Asosiy shoxchalar: markazda joylashgan mavzudan asosiy shoxchalar chiqib, ular mavzuni alohida sohalarga ajratadi. Ularga katta harflar bilan kalit so'zlar yoziladi, bunda shoxchalar kalit so'zlardan uzun bo'lmaydi. Yaxshiroq ko'rinishi uchun har bir asosiy mavzu uchun o'z rangini berish, chiziq qalinligi orqali so'zning ahamiyatini ko'rsatish mumkin.

3. Shoxchalar: asosiy shoxchalardan shu rangdagi shoxchalar chiqadi, ular g'oyaG fikrlarning qo'shimcha bosqichlarini shakllantiradi.

4. Tuzatishlar: muhim bo'lmay qolgan axborot ramkaga olinishi va shtrixlanishi yoki o'chirg'ich bilan o'chirilishi mumkin.

Borishi. Assotsiogramma o'zining rasmlari, belgilari va turli ranglari bilan ravshanroq hamda samaraliroq chizilishi mumkin. Assotsiogramma hech qachon oxirigacha tuzilmagan, u hali tugallanmagan rasmdir, yangi g'oyalar istalgan vaqtga uni to'ldirishi va rivojlantirishi mumkin. Kalit so'zlarni tanlashda abstraktdan haqiqiyga va umumiydan maxsus tomonga borish kerak. Agar ko'p joy talab qilinsa, o'quvchiga boshidan boshlash va mavzuni boshqadan belgilash kerak bo'ladi.

Amalga oshirish qoidalari. O'quv mashg'ulotlarida hisobga olish kerak bo'lgan ba'zi punktlar:

o'quvchilarga mavzuga moslashish uchun vaqt berish;

rasm chizishga ketadigan vaqtni chegaralash;

o'quvchilarga bir-birining rasmini ko'rishga ruxsat berish;

o'quvchilarga o'z assotsiogrammalarini taqdim etishga imkon berish, buning natijasida tushunchalarning keyingi ma'nolari tushuntiriladi va yangi assotsiatsiyalarga yo'l ochiladi;

tushunmovchiliklarda "teshiklar" qo'yib, keyin ularni birgalikda muhokama qilish;

xatning tushunarligiga e'tibor berish.

Kuchli jihatlari:

Kalit so'zlarni qo'llash natijasida e'tiborni faqat asosiy narsalarga berish mumkin, bunda ishlab chiqishga vaqt va varaqda joy tejiladi.

Ko'rinishi tufayli informatsiya tezroq qayta ishlanadi va xotirada uzoqroq saqlanadi.

Assotsiogramma ochiq joylarni topadi: grafik ko'rinish tufayli qaysi fikr g'oyalar yaxshi rivojlangan, qaysilari esa unchalik emasligi yaqqol ko'rinadi.

Assotsiogramma metodi materialni takrorlash uchun juda yaxshi keladi; asosiy bilimlar mavjud, ularni qayta tuzish va eslash uchun kalit so'zlar assotsiatsiyasi etarli bo'ladi.

Ishchi guruhlariga ajratishda kommunikativ jarayonlarni rag'batlantirish.

Kamchiligi.

Hech qanday assotsiogramma boshida mukammal bo'lmaydi. Shu uchun assotsiogrammalarni tuzish boshida qiyin bo'ladi va bu mashq qilishni talab qiladi. Bunda quyidagi qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin:

ishtirokchilar tomonidan qarshiliklarga duch kelinadi (ishlash printsiplari ularning odatiy fikrlashiga to'g'ri kelmaydi); tanlangan kalit tushunchalarG'belgilar individualdir va boshqalar uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin.

Aynan bitta assotsiogrammani qayta-qayta yozish ko'p vaqtni oladi.

Tushunchalar tasavvurlar xaritasi metodi bilan taqqoslash.

Agar assotsiogrammada birinchi navbatda «tuzilma» tushunchasi bo'lsa, tushunchalar tasavvurlar xaritasi uchun «munosabat» tushunchasi yotadi. U ko'proq sabablar va oqibatlar haqidagi savollarga to'g'ri keladi. Tushunchalar, bilimlar strukturalarini grafik ko'rsatish uchun so'zlardan (terminlar, tushunchalar, tugunlar) va strelkalardan (ma'nodor munosabatlar) iborat bo'ladi. Alohida elementlar joylashishi markazda yoki ierarxik tizimlanishi mumkin.

## MAVZU. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILIYAT

### Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	o'quvchilar soni: 50 ta
<i>Mashg'ulot shakli va turi</i>	Ma'ruza
<i>O'quv mashg'ulotining rejasi:</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qobiliyat haqida tushuncha. Qobiliyatning psixologik pedagogik tasnifi.</li> <li>2. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari.</li> <li>3. Qobiliyatlarning o'qituvchi faoliyatidagi roli.</li> </ol>
<p>O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'quvchilarda pedagogik qobiliyatlar, uning asosiy turlari (Empatiya va pertseptiv qobiliyatlar; didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ, bilish va anglash qobiliyatlari; o'z-o'zini idora qila olish, ta'sir ko'rsata olish), ularni puxta egallash va takomillashtirish yo'llari haqida nazariy bilimlarini shakllantirish.</p>	
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun testlarni taqdim etish;</li> <li>-“Aqliy hujum” usuli yordamida og'zaki so'rov o'tkazish;</li> </ul>	<p>O'quv faoliyati natijalari: O'quvchi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'tilgan mavzuni esga oladilar;</li> <li>-test savollari orasidan to'g'risini topib belgilashga harakat qiladilar;</li> <li>-“Aqliy hujum” usuli yordamida og'zaki javob beradilar;</li> <li>- mavzu va rejalar, asosiy adabiyotlar bilan slayd</li> </ul>

<ul style="list-style-type: none"> <li>- mavzuni e'lon qilish, rejalar, asosiy adabiyotlar bilan qisqa tanishtirish;</li> <li>- qobiliyatlar to'g'risida ma'lumot berish, "qobiliyat", "pedagogik qobiliyat" atamalarining mohiyatini ochib berish;</li> <li>- pedagogik qobiliyatning asosiy turlari bilan tanishtirish;</li> <li>- qobiliyatning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni bilan tanishtirish;</li> <li>- o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun klaster usulini o'tkazish.</li> </ul>	<p>vositasida tanishadilar, yozib oladilar;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- "Qobiliyat" va "pedagogik qobiliyat" atamalarining mohiyatini tushuntirishga harakat qilidilar, o'qituvchi yordamida ularning ta'rifini keltiradilar;</li> <li>- pedagogik qobiliyat va uning turlari bilan slayd yordamida tanishadilar;</li> <li>- qobiliyatning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar;</li> <li>- klaster usuli yordamida o'tilgan mavzuga oid asosiy tushunchalarni ajratib ko'rsatadilar.</li> </ul>
<i>Ta'lim usullari:</i>	Ma'ruza, savol-javob, klaster, aqliy hujum, Assotsiogramma metodi.
<i>Ta'limning tashkiliy shakli</i>	Jamoaviy, guruhiy.
<i>Ta'lim vositalari:</i>	Ma'ruza matni, kompyuter, videoproektor, grafikli tashkil etuvchilar.
<i>Ta'lim berish sharoiti:</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona.
<i>Monitoring va baholash:</i>	Test, og'zaki so'rov, tezkor so'rov.



### Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	F a o l i y a t m a z m u n i	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
<p><b>1-bosqich</b></p> <p><b>O'quv</b></p> <p><b>mashg'ulotiga</b></p> <p><b>kirish (20 daq.)</b></p>	<p>1.1.O'tilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirishini aniqlash maqsadida 10 savoldan iborat test topshirig'ini taqdim etadi (11-ilova).</p> <p>1.2. Aqliy hujum usuli yordamida o'tilgan mavzuga oid asosiy tushunchalarni aniqlaydi. (8-ilova).</p> <p>1.3.Yangi mavzu nomi va rejalari, adabiyotlar ro'yxati, tayanch iboralarini aytib o'tadi (1-ilova).</p>	<p>1.1.Topshiriqni qabul qiladilar, bajaradilar.</p> <p>1.2.Aqliy hujum usuli orqali o'tilgan mavzu bo'yicha olgan ma'lumotlarini bayon qiladilar.</p> <p>1.3. Yangi mavzu va rejalarni, adabiyotlar ro'yxatini yozib oladilar.</p>
<p><b>2-bosqich.</b></p> <p><b>Asosiy</b></p> <p><b>qism. (50 daq.)</b></p>	<p>2.1.Qobiliyat haqida ma'lumot beradi, qobiliyat, pedagogik qobiliyat atamalarining mohiyatini ochib beradi .</p> <p>2.2.Pedagogik qobiliyatlar va uning tarkibiy qismlarini tushuntiradi.</p> <p>2.3.Pedagogik qobiliyat va uning o'ziga xos xususiyatlarini, tarkibiy qismlarini tushuntiradi.</p> <p>2.4.Pedagogik qobiliyatlar, unga qo'yiladigan pedagogik talablar to'g'risida ma'lumot beradi.</p> <p>2.5.Pedagogik qobiliyatni egallash va</p>	<p>2.1.Tinglaydilar yangi ma'lumotlarni qayd etib boradilar.</p> <p>2.2.Tinglaydilar, asosiy xulosalarni yozib qo'yadilar.</p> <p>2.3.Tinglaydilar, yangi ma'lumotlarni yozib oladilar.</p> <p>2.4.Tinglaydilar, kerakli ma'lumotlarni qayd etib boradilar.</p>

	<p>takomillashtirish omillari haqida ma'lumot beradi (2-7 ilovalar).</p> <p>2.6.Kichik guruhlarga mustaqil bajarishlari uchun topshiriq beradi. Bu toshiriqni bajarish uchun “Assotsiogrammalar” metodidan foydalaniladi (9-ilova).</p> <p>2.7. Jamoaga yangi mavzu yuzasidan muammoli topshiriqni beradi (10-ilova).</p>	<p>2.5.Tinglaydilar, fikr bildiradilar, yozib oladilar.</p> <p>2.6.Mustaqil ish topshirig'ini yozib olib guruhlar ishlaydilar. Bu metodni shartlari bilan bilan tanishib chiqadilar va kerakli ma'lumotlarni yozib oladilar.</p> <p>2.7. Yangi mavzu yuzasidan muammoli topshiriqni yozib oladilar va bajaradilar.</p>
<p><b>3-bosqich</b> <b>Yakuniy</b> <b>qism</b> <b>(10 daq.)</b></p>	<p>3.1.O'tilgan ma'ruza bo'yicha etkazilgan ma'lumotlarni mustahkamlash uchun Klaster usulidan foydalanib asosiy tushuncha va atamalarni jadvalga kiritib izohlab berishini aytadi (12-ilova).</p> <p>3.2.Yozgan ma'lumotlarini to'plab izohlaydi va baholaydi.</p> <p>3.3.Mustaqil ish uchun topshiriq: “O'qituvchi faoliyatida kommunikativ qobiliyat, muloqot madaniyatining namoyon bo'lishi” mavzuida ijodiy ish yozib kelish.</p> <p>3.4.O'quvchilarning savollariga javob beradi.</p>	<p>3.1.Olgan ma'lumot-lariga asoslanib asosiy tushunchalarni aytadilar.</p> <p>3.2.Tinglaydilar, natijalarni yozib oladilar.</p> <p>3.3.Vazifani yozib oladilar.</p> <p>3.4.Mavzu bo'yicha tushunmaganlarini so'raydilar.</p>

## **2-bob bo'yicha xulosa**

Zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o'qitishning interaktiv metodlari yordamida mustaqil ta'lim olishni yo'lga qo'yish mumkin bo'ladi. Ta'lim oluvchilar bilimini har xil turdagi mashg'ulotlar bo'yicha xolisona baholash mezonlari, tanqidiy fikrlash va ijodni rivojlantirish, interaktiv ta'lim bo'yicha metodik ishlanmalarni yaratish zamon talabidir.

Ta'lim sifatini boshqarish asosan informatsion texnologiyalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish va samarali pedagogik faoliyat uchun sharoitlar yaratishga yo'naltirish kerak.

Ta'limda pedagogik va axborot texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan bir qator fundamental ishlar olib borilgan. Ammo ushbu ishlarda pedagogik texnologiyalarni qo'llashning nazariy jihatlari yoritilgan bo'lib ularni amalga qo'llash qoidalariga e'tibor kam qaratilgan. Biz tomondan boshlang'ich ta'lim o'qituvchisini ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi texnologiyalar tavsiya etilgan.

### **III BOB**

## **BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI TA‘LIMIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIGI**

### **III.1. Boshlang‘ich sinf ona tili ta‘limida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning metod va vositalari.**

Shaxsning psixologik va fiziologik xususiyatlari asosida namoyon bo‘ladi. Bu kabi xususiyatlar shaxsning o‘ziga xosligi, individualligini ifodalaydi. Individuallik esa o‘z navbatida u yoki bu yo‘nalishlardagi qobiliyatning yorqin ko‘zga tashlanishida yetakchi omil hisoblanadi. B.M.Teplovning fikricha, «Psixologiyaning ixtiyoriy umumiy qonunining ma’lum ko‘rinishi har doim o‘zida shaxsiylik omili, individuallik omilini qamrab oladi». Ana shu jihatga ko‘ra o‘quvchilarni tanlash va ularni Maktablarga jalb etishda psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini alohida inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Qobiliyatlilik va uning ma’lum sohalar bo‘yicha namoyon bo‘lishini samarali rivojlantirish muammosi so‘nggi yillarda tabaqalashtirilgan psixofiziologiya yo‘nalishi bo‘yicha muvaffaqiyatli tadqiq etilgan. Jumladan, B.M.Teplov, B.G.Ananyeva, V.S.Merlin, M.G.Yaroshevskiy, V.V.Umrixin, L.Mesakki, J.Brozes, J.Strelau va I.V.Ravich-Xerbolarning tadqiqotlarida qobiliyatlilik darajasini belgilab beruvchi asab tizimining holati va ichki sabablarini tahlil qilish yo‘llari yoritilgan.

Ko‘plab tadqiqotlarda qobiliyatlilik darajasini belgilovchi omillar orasida faollik va o‘z-o‘zini boshqarish xususiyatining alohida ahamiyatga egaligiga alohida urg‘u beriladi. Masalan, N.S.Leytes, E.A.Golubeva, B.R.Qodirov, A.I.Krupnov va V.V.Pechenkovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bu kabi sifatlarning shaxs individualligini namoyon bo‘lishi, ma’lum sohalarda yuqori darajada yutuqlarga erishishdagi roli va o‘rni masalasi o‘rganilgan.

V.V.Pechenkovning fikricha, ommaviy qobiliyatlilikning muhim ko‘rinishi bo‘lgan faollik bir vaqtning o‘zida shaxs temperamenti (mijozi)ning belgisi sifatida

ham aks etadi. Bu esa asab tizimi, temperament (mijoz) va qobiliyat insonning o'ziga xos individualligini belgilovchi yaxlit tuzilma ekanligini tasdiqlaydi.

Qobiliyatli o'quvchilarning kuchli xotira ega bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli Maktablarga o'quvchilarni qabul qilish va o'qitish davrida ularning xotira kuchi qanday ekanligini aniqlashga e'tibor qaratish zarur.

Qobiliyatli bolalarni tanlash va ularni ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga jalb etishda ularning quyidagi umumiy psixologik xususiyatlarga ega ekanliklarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

1. Shaxs individualligining yorqin ko'zga tashlanishi.
2. Shaxsning faolligi va o'z-o'zini boshqara olishi.
3. Asab tizimining kuchli bo'lishi, jiddiylik va sovuqqonlik (sport, ilmiy, texnik va til yo'nalishlarida).
4. Asab tizimining nisbatan kuchsiz bo'lishi va o'ta ta'sirchanlik (musiqa, tasviriy san'at, amaliy san'at va xoreografiya yo'nalishlarida)
5. Asab tizimining labilligi va og'uvchanligi.
6. Yuqori darajada xotira kuchiga egallik.

Tadqiqot ko'lamini inobatga olgan holda tajriba sinov maydonlari sifatida san'at (musiqa, raqs va tasviriy san'at) yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasalari tanlanganligi bois o'quvchilarning shu yo'nalishlardagi qobiliyatlarining namoyon bo'lishini belgilovchi mezonlar ishlab chiqildi.

Qobiliyatli bolalar bilan ishlash nihoyatda murakkab. Maxsus adabiyotlarda bu murakkablik quyidagi muammolar bilan belgilanishi ta'kidlanadi:

1. Maktab ta'limiga bevosita bog'liq shaxs bo'lmaslik (bunday munosabat qobiliyatli bolalar uchun o'quv dasturlarining zerikarli va qiziqarli emasligi tufayli kelib chiqadi).
2. Qiziqishlarning o'yin xususiyatiga egaligi (qobiliyatli bolalarga nihoyatda murakkab bo'lgan o'yinlar yoqadi va ularni o'rtacha qobiliyatga ega bo'lgan tengdoshlarini qoniqtiruvchi o'yinlar mutlaqo qiziqtirmaydi. Bunday

3. vaziyatlarda qobiliyatli bolalar o'zlarini «ajratib qo'yilgan shaxs» sifatida his qiladi).

4. Qulaylik (qobiliyatli bolalar standart (bir qolipdagi) talablarni, agarda bu talablar ularning qiziqishlari bilan mos kelmasa va ular uchun hech bir ma'noni anglatmasa, mutlaqo inkor etadi.

5. Falsafiy muammolar to'g'risida o'ylash (qobiliyatli bolalar o'rtacha qobiliyatga ega tengdoshlariga nisbatan o'lim, jasad qabrga qo'yilgandan keyingi holat, diniy e'tiqod hamda falsafiy muammolar to'g'risida ko'proq o'ylaydilar).

6. Jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishning o'zaro muvofiq kelmasligi (qobiliyatli bolalarning ko'pchiligi katta yoshli bolalar bilan muloqotda bo'lish va ular bilan birga o'ynashga intiladilar. Bu holatda tabiiyki ular jismoniy rivojlanishiga ko'ra so'nggi o'rinda turadilar va natijada ko'p holatlarda lider bo'la olmaydilar).

Qayd etilgan muammolarning mavjudligi o'z-o'zidan qobiliyatli bolalarni o'qitish va ular bilan ishlash jarayoniga alohida yondoshish zarur ekanligini taqozo etadi. Bunday yondashuv negizida ushbu jarayonga jalb etiluvchi o'qituvchilarni tanlash masalasiga alohida e'tibor qaratiladi.

O'qituvchilarni qobiliyatli bolalar bilan ishlash jarayoniga jalb etishda qanday yo'l tutish pedagogik jihatdan to'g'ri va samarali bo'ladi? Quyida aynan shu xususida so'z yuritiladi.

Qobiliyatli bolalar bilan ishlashdagi murakkablikni inobatga olgan holda bu jarayonga o'qituvchilarni tanlashda quyidagi shartlarga amal qilish talab etiladi:

1. O'qituvchilar shaxsini yaqindan o'rganish, ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasi (ma'naviy-axloqiy qarashlari, e'tiqodi, dunyoqarashining boyligi, ijtimoiy munosabatlarga nisbatan shaxsiy yondashuvi, kelajakka bo'lgan ishonch tuyg'usiga egaligi va boshqalar)ni to'g'ri baholash.

2. Uning kasbiy mahorati (psixologik, pedagogik bilimlardan xabardorlik darajasi, ta'lim jarayoni subyektlari bilan aloqada bo'la olish

3. layoqati, pedagogik vaziyatlarni to'g'ri baholay olish qobiliyati, mavjud ziddiyatlarni hal eta olish imkoniyati, metodik malakasi va hokazolar)ni obyektiv aniqlash.

4. O'qituvchilarning jismonan va ruhan sog'lom bo'lishlarini inobatga olish (qobiliyatli bolalar doimiy faol shaxslardir. Shu sababli ular bilan ishlash bir vaqtning o'zida ham ruhan, ham jismonan sog'lom va baquvvat bo'lishni taqozo etadi).

5. Ularning tashabbuskor, tashkilotchi va ijodkor bo'lishlariga e'tibor qaratish (qobiliyatli bolalarning qiziquvchan tabiati, faoliyat sharoiti va ko'rinishlarini tez-tez o'zgartirishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish o'qituvchidan muayyan vaziyatlarga nisbatan ijodiy yondoshishni, bolalarga yangidan-yangi faoliyat turlarini taklif etishni talab qiladi. Bu esa qobiliyatli bolalarni zerikishdan xalos etib, ularni faol faoliyatga jalb etadi).

6. O'qituvchilarning maxsus dasturlar bilan ishlay olish layoqatiga egaliklari (qobiliyatli bolalarni o'qitish doimo maxsus o'quv dasturlari asosida tashkil etiladi. Shu bois o'qituvchilar kuchaytirilgan talablar bo'yicha yaratilgan o'quv dasturlari bilan ishlaydilar. Bu esa u qadar oson ish emas. Bu jihatdan qaraganda o'qituvchilarning maxsus dasturlar bilan ishlay olish imkoniyatlarining alohida e'tiborga olinishi maqsadga muvofiqdir).

Qobiliyatli o'quvchilarda ixtiyoriy yodda saqlash ularning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta'sir eta olmaydi, aksincha salbiy ta'sir ko'rsatishi tasdiqlandi. Yanada muhimi tajriba natijalari musiqiy qobiliyat ko'p holatlarda ixtiyorsiz yodda saqlash asosida shakllanadi va uning qanchalik aniq, yorqin bo'lishi shaxsning ixtiyorsiz yodda saqlash unsurlari uchun shu darajada ahamiyatli deyishga asos bo'la oladi. V.S.Rotenberga tomonidan olib borilgan tadqiqot ham haqiqiy ijodiy iste'dodlilik negizida ixtiyorsiz ifoda yotishini tasdiqladi. Yuqori darajada musiqaviy iste'dodga ega bo'lgan shaxslarda mustaqillik, o'ziga xoslik, asarlarni ijro etishda yorqinlik, shuningdek, ixtiyorsiz yodda saqlash qobiliyatiga egalik ko'zga tashlanadi.

Demak, musiqiy qobiliyatga ega bo'lishda asab tizimining zaif, kuchsiz bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Shu sababli aksariyat musiqa maktablarining o'quvchilari kuchsiz asab tizimi, unga xos bo'lgan yuqori darajadagi sezgirlik yotadi. Shu sababli asab tizimining kuchsizligi, shuningdek, yuqori darajadagi sezgirliги musiqiy qobiliyatning tabiiy asosi hisoblanadi.

Shunday qilib, qobiliyatli bolalarni o'qitishga Maktablar faoliyati samaradorligini oshirishda bu jarayonning eng muhim psixologik va texnologik jihatlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Samarali shakl, metod va vositalarning tanlanishi esa texnologik jarayonning ustuvor elementlaridan biridir. Navbatdagi paragrafida ana shu haqda so'z yuritiladi.

Qobiliyatli bolalarni aniqlash va ularni maktablarga jalb etish maqsadida tashkil etilgan reyding muhim bosqichi sifatida psixologo-pedagogik maslahatlarning tashkil etilganligidan ota-onalar mamnun bo'ldilar. Buni Maktabga reyding natijalariga ko'ra qabul qilingan o'quvchilarning ota-onalari tomonidan bildirilgan fikrlardan ham anglash mumkin.

Masalan, 2v-sinf o'quvchisi Doniyor Jabborovning onasi Sanamjon Jabborova quyidagilarni bildirdi: «O'g'lim Doniyorning musiqa bo'lgan qiziqishini men ham sezgan edim. Biroq uni musiqa yo'nalishiga Maktabda o'qitishni o'ylab ko'rmagandik. Kunlardan bir kuni uyimizga Buxoro shahrida joylashgan 35-maktabning o'qituvchisi N.Mahkamova keldi va menga maktab rahbariyatining taklifnomasini berdi. Unda yozilishicha, o'g'lim Doniyor tarbiyalanayotgan bog'chada qobiliyatli bolalarni aniqlash bo'yicha maxsus reyding o'tkazilganligi va reyding yakuniga ko'ra o'g'lim qobiliyatli deb topilganligi aytilgan. Shu sababli maktab rahbariyati biz bilan suhbat o'tkazmoqchi ekanligi bildirilgan edi. Maktabga kelib, rahbariyat bilan uchrashdim, ular bilan suhbatlashdik. Suhbat chog'ida mening o'g'lim kabi qobiliyatli deb topilgan ona-onalar uchun maktabda maxsus maslahat tashkil etilishi, xohlasam unda ishtirok etishim mumkinligini aytishdi.



Uyimiz maktabdan uzoqroqda joylashganligi uchun o'g'limning bu yerda ta'lim olishi ma'qul bo'ladimi deb ikkilangan edim. Suhbat davrida o'g'limni maktabda o'qishi uchun xohish bildirishim to'g'ri bo'lishini angladim va men rozilik bildirdim.

Tajriba davrida 35-maktab faoliyatida samaradorlikka erishish yo'lida amalga oshirilgan tadbirlardan yana biri o'qituvchilarni qobiliyatli bolalarni tanlash va ularning qobiliyati darajasini doimiy o'rganib borishga oid maxsus metodikalar mazmuni bilan tanishtirish bo'ldi. Tanishtirish amaliy trening shaklida amalga oshirildi. «Qobiliyat yo'nalishi hamda darajasini baholovchi maxsus psixologik testlar va metodikalar» mavzusidagi amaliy treningning tashkil etilish jarayoni quyidagicha bo'ldi:

1-bosqich: maktabda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarga rivojlanayotgan xorijiy mamlakatlar ta'limi tajribasida samarali qo'llanilayotgan qobiliyat yo'nalishi hamda darajasini baholovchi maxsus psixologik testlar va metodikalar to'g'risida nazariy ma'lumotlarni berish. Amaliy treningning birinchi bosqichida o'qituvchilarga Gauenaning «Zahiraviy model»i, «Slosson testi», «Veksler shkalasi», «Torrens (I-II) testlari» hamda «Boshlang'ich maktablar uchun mo'ljallangan Stanford testi» haqida umumiy obzorga asoslangan nazariy ma'lumotlar berildi. Bosqich yakunida o'qituvchilarga nomlari keltirilgan test va metodikalar haqida batafsil ma'lumot beruvchi kichik risola tarqatildi.

2-bosqich: o'qituvchilarni o'quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyati yo'nalishi va darajasini batafsil yorituvchi va amaliyotda faol qo'llanilayotgan maxsus psixologik test va metodikalar bilan yaqindan tanishtirish. Bu bosqichda ularga K.K.Platonovning «Shaxs tuzilmasi» metodi, YE.P.Guseva tomonidan asoslangan metodika va YE.A.Klimovning «Tabaqaviy tashxisli so'rovnoma» haqida ma'lumotlar berildi. O'qituvchilarning qayd etilgan metodikalar haqidagi ma'lumotnoma bilan ta'minlanishlari bosqichning yakuni bo'ldi.

Amaliy treningning ikkinchi bosqichida o'qituvchilarga quyidagi ma'lumotlar yetkazildi:

K.K.Platonovning «Shaxs tuzilmasi» metodi bo'yicha metodning o'quvchi shaxsi va uning qobiliyati, qobiliyati yo'nalishlari haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlovchi ko'rsatmalardan iborat varaqa ekanligi, ko'rsatmalarning bir necha bandedan iboratligi, asosiy ma'muotlar o'quvchining shaxsi, sog'ligi, jismoniy (fiziologik) holati, oilaviy sharoiti, sinf jamoasidagi o'rnini, shuningdek, o'ziga xos psixologik xususiyatlari (qobiliyati va qobiliyati, shu jumladan, hissiy qo'zg'alish va uning faoliyatga ta'siri, diqqatning barqarorligi, xotira samaradorligi, tafakkur darajasi, ijodiy tafakkurga egaligi, temperament kuchi, harakatchanligi va muvozanatlashganligi (labilligi)ni belgilovchi ko'rsatkichlardan tashkil topganligi to'g'risidagi ma'lumotlar berildi.

YE.P.Guseva tomonidan asoslangan metodika bo'yicha o'quvchining xotira kuchi, yodda saqlab qolish qobiliyatini aniqlashga xizmat qilishi, uning ixtiyoriy va ixtiyorsiz yodda saqlashni tavsiflovchi bir necha o'lchovlarni ajratish va bu qobiliyatni sifatli o'lchash imkoniyatiga egaligi, ko'rish faoliyatning musiqaviylikka bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi analizatorlarga yo'naltirilganligi, metodikaning umumiy mohiyati (15 ta rangli kartinalar yordamida ikki turda amalga oshirilishi) to'g'risidagi ma'lumotlar berildi.

YE.A.Klimovning «Tabaqaviy tashxisli so'rovnomasi» bo'yicha: o'qituvchilarga metodikaning o'quvchilarning turli soha va yo'nalishlardagi mehnat faoliyatini tashkil etishga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga xizmat qilishi, munosabat ko'rsatkichlarining har bir (jami beshta) sohaga oid mehnat faoliyati yuzasidan berilgan 8 ta savol, uchta ko'rsatkich (0 dan 24 gacha bo'lgan plyuslar va xuddi shunday minuslar miqdori hamda plyus va minuslarning algebrik yig'indisi) asosida aniqlanishi, shuningdek, metodikaning afzalligi to'g'risidagi ma'lumotlar berildi.

3-bosqich: o'quvchilarda K.K.Platonovning «Shaxs tuzilmasi» metodi, YE.P.Guseva tomonidan asoslangan metodika va YE.A.Klimovning «Tabaqaviy tashxisli so'rovnomasi» bo'yicha ishlash ko'nikma, malakalarini shakllantirish. Bu bosqichda quyidagicha yo'l tutildi:

K.K.Platonovning «Shaxs tuzilmasi» metodi bilan ishlash ko‘nikma va malakasini shakllantirish bo‘yicha: o‘qituvchilar varaqada metodikada qayd etilgan asosiy berilgan ko‘rsatmalari bo‘yicha o‘zlariga yaxshi tanish bo‘lgan va ixtiyoriy tanlangan o‘quvchi haqidagi ma’lumotlarni aks ettira olish vazifasi bajarildi.

YE.P.Guseva tomonidan asoslangan metodika bo‘yicha: bu sharoitda o‘quvchilar bilan ishlash imkonining bo‘lmaganligi bois o‘quvchilar ikki guruhga bo‘lindi. Har bir guruh metodika g‘oyasiga muvofiq navbat bilan bir-birlarining xotira kuchi, yodda saqlab qolish qobiliyatini aniqladilar.

YE.A.Klimovning «Tabaqaviy tashxisli so‘rovnomasi» bo‘yicha: bu gal ham o‘quvchilar bilan ishlash imkoniyati mavjud bo‘lmaganligi sababli ko‘nikma va malakalar shartli ravishda o‘qituvchilardan iborat «o‘quvchilar guruhi» shakllantirildi. O‘qituvchilar orasidan bir nafar lider tanlandi. Lider metodika g‘oyasiga ko‘ra «o‘quvchilar guruhi»ga mehnat faoliyatining turli yo‘nalishlariga oid uchta ko‘rsatkichga asoslangan 8 ta savol berdi. «O‘quvchilar»ning qaysi mehnat faoliyati bo‘yicha qobiliyat va layoqatga egaliklari ularning javoblari mazmuniga ko‘ra aniqlandi.

Tajriba davrida, yana shuningdek, qobiliyatli o‘quvchilarni aniqlash, ularni Maktablarga jalb etish hamda ularga malakali ta’lim berishning samarali tashkil etilganligini baholovchi ekspertiza yo‘lga qo‘yildi. Ekspertiza quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Ta’lim muassasasi faoliyatining aniq yo‘nalishi (bu o‘rinda maktabga qobiliyatli o‘quvchilarning jalb etilganligi va ular tomonidan yuqori natijalarning qo‘lga kiritilganligini o‘rganish) bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilashga imkon beruvchi mezonlarni ishlab chiqish.

2. Maktablarning faoliyati yo‘nalishiga ko‘ra ko‘p yillik pedagogik tajriba va malakaga ega bo‘lgan mutaxassislardan iborat ekspert guruhi (har biri uch kishidan iborat uchta guruh)ni shakllantirish.

3. Ekspertiza o‘tkazish muddatini belgilash.

4. Keng ko‘lamda ekspertizani tashkil etish.

5. Maktablar pedagogik jamoasi tomonidan ekspertiza natijalarini o'rganish.

6. Erishilgan yutuqlarni yanada boyitish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarga barham berish chora-tadbirlarini belgilash.

Maktabga qobiliyatli o'quvchilarning jalb etilganligi va ular tomonidan yuqori natijalarning qo'lga kiritilganligini quyidagi mezonlar bo'yicha aniqlash maqsadga muvofiq deb topildi:

1. Maktabga jalb etilgan har bir o'quvchining qobiliyatga egaligi.

2. Ular tomonidan erishilgan eng e'tiborga loyiq natijalar.

3. O'quvchilar qobiliyatining dinamik o'zgarishi (sinf dan sinfga yoki bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishda yutuqlarning son va sifat jihatidan ortib borishi).

4. Maktablarda ta'lim olgan sobiq o'quvchilarning jamiyat hayotining muayyan sohalarida egallagan o'rni (mavqei) darajasi.

Ekspertizaga jalb etilgan ekspertlar uchta guruhga birlashtirildilar. Har bir guruh: boshlang'ich (1-4-sinflar), o'smir (5-9-sinflar) va o'spirin yoshi (10-

11-sinflar) o'quvchilarining qobiliyatlari yo'nalishi va darajasini tahlil etishga jalb etildi.

Ekspertlar guruhlari o'quvchilarning maxsus fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari, xalqaro, respublika, viloyat, shahar va tuman miqyosida Maktab faoliyati yo'nalishida o'tkazilgan musobaqa, ko'rik va tanlov natijalari, sobiq o'quvchilarning mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimining keyingi bosqichlari (masalan, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim muassasalarida) ta'lim olishni davom ettirganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni diqqat bilan o'rgandilar.

Ekspertizani o'tkazish muddatini belgilashda Maktab jamoasining fikri inobatga olindi. Binobarin, bu jarayon bir necha kun, xatto haftani talab qiladi. Shu sababli ekspertiza ta'lim muassasasida kechadigan o'quv jarayoniga salbiy ta'sir etmasligi nazarda tutildi. Jamoa fikriga ko'ra uni qishki ta'til davrida o'tkazish ma'qul deb topildi.

Qobiliyatli bolalarni o‘qitishda maktablarda samaradorlikka erishishning yana bir shakli – bu ta’lim muassasasi faoliyati yuzasidan monitoringning yo‘lga qo‘yilishi bo‘ldi. Monitoring yaqin va uzoq kelajakka mo‘ljallangan reja asosida amalga oshirildi.

Yaqin kelajakka mo‘ljallangan reja asosida amalga oshirilgan monitoringning asosiy maqsadi – qobiliyatli o‘quvchilarni tanlash, ularni Maktablarga jalb etish, bir yoki ikki o‘quv yilida ular qobiliyati darajasining sifat o‘zgarishini mutaxassislik fanlarining muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishi, turli musobaqa, ko‘rik-tanlovlardagi sovrinli ishtirokning inobatga olinishi asosida tahlil qilishdan iborat etib belgilandi.

Uzoq kelajakka mo‘ljallangan reja asosida amalga oshirilgan monitoringning asosiy maqsadi esa – Maktablarning jamiyat hayoti (bu yerda madaniy hayoti)ni yanada rivojlantirishga qo‘shgan hissasi, ta’lim olgan o‘quvchilarning , ta’lim tizimining keyingi bosqichlarida o‘qishni muvaffaqiyatli davom ettirish hamda tanlangan mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy faoliyatni yuksak samaradorlik asosida tashkil etish ko‘rsatkichlarini o‘rganish etib belgilandi.

Ta’lim muassasalarining faoliyati bo‘yicha monitoring Maktablarda tashkil etilgan Monitoring markazi tomonidan amalga oshirildi. Monitoring ntijalari vaqti-vaqti bilan Pedagogik kengash yig‘ilishlarida muhokama etilib, tahliliy ravishda o‘rganib borildi.

Monitoring Maktablarda ichki nazorat, o‘z-o‘zini boshqarishning muhim ko‘rinishi sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shunday qilib, turli shakl, metod va vositalaridan foydalanish qobiliyatli bolalarni o‘qitishga Maktablar faoliyati samaradorligini yanada oshirishga imkon beradi. Eng muhimi, ular orasidan eng samaralisini tanlab olishdir. Tadqiqotni olib borishda masalaning ana shu jihatiga e’tibor qaratildi.

Qobiliyatli bolalarning oila sharoitida har tomonlama kamol topishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o‘rganish maqsadida tajriba ishlariga, shuningdek, ot-onalar ham jalb etildi.

Tajriba ishlarining muhim jihati sinovdan o'tkazilayotgan metodikaning qay darajada amaliyotga mos tushganligi va uning samaradorligi darajasini baholash hisoblanadi. Shu sababli tajriba - sinov maydonlari sifatida belgilangan ta'lim muassasalari qobiliyatli bolalarni o'qitishga Maktablarga tavsiya etiladigan metodikalar samaradorligini aniq baholash maqsadida ikki guruh ya'ni, tajriba va nazorat maktablari tarzida belgilab olindi. An'anaga muvofiq tajriba maktablarida tatbiq etilgan metodikalar asosida ish ko'rildi, nazorat maktablarida esa odatdagi tartibda, amaldagi o'quv dasturlari va ma'naviy - ma'rifiy ishlar rejasida belgilangan tarzda ish olib borildi. Har ikki guruh maktablaridagi sinaluvchilarning son ko'rsatkichlari quyidagilarni tashkil etdi.

**Tajriba va nazorat maktablaridan tajriba ishlariga jalb etilgan  
sinaluvchi o'quvchilar soni**

<b>Qobiliyatli bolalarni o'qitishga maktablar</b>			
Tajriba maktablari		Nazorat maktablari	
23-maktab	31- maktab	35- maktab	38- maktab
70	64	65	69
O'quvchilarning umumiy soni $n_1 = 134$ nafar		O'quvchilarning umumiy soni $n_1 = 134$ nafar	
<b>Ўқувчиларнинг умумий сони – 268 нафар</b>			

Qobiliyatli bolalarni tanlash va ularga ta'lim berishda psixologik test va metodikalardan foydalanish o'quvchilarning qobiliyatini yanada rivojlantiribgina qolmay, balki Maktablar faoliyati samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi degan g'oyaga asoslandi.

Asosiy g'oya negizida quyidagi faraz ilgari surildi: Maktablar tomonidan qobiliyatli bolalarning to'g'ri tanlanishiga (maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalari, shuningdek, oilalar bilan hamkorlikda) erishilsa; ta'lim davrida o'quvchilar qobiliyatining dinamik o'sishi izchil ravishda tahlil etib borilsa; Maktablarning o'qituvchilari o'quvchilar qobiliyati, uning takomillashib borish darajasini baholash (maxsus psixologik test va metodikalardan foydalanish) ko'nikmalariga ega bo'lsalar; Maktablarning faoliyati izchil, uzluksiz ravishda ekspertizadan o'tkazilib borilsa; uzoq va yaqin kelajakka mo'ljallangan monitoring yo'lga qo'yilsa Maktablar faoliyatida samaradorlikka erishiladi.

Maxsus metodikalar quyidagi tarkibiy elementlardan iborat :

I. Qobiliyatli o'quvchilarni aniqlash va ularni ixtislashgan ta'lim muassasasiga jalb etishga oid anketa so'rovlari. Anketa so'rovlari ixtisoslashgan ta'lim muassasalari rahbarlari, ota-onalar hamda sinf rahbarlari uchun mo'ljallangandir.

2. Qobiliyatli o'quvchilarni tanlash, ularga ta'lim berish va qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga oid mualliflik metodikalari.

3. O'quvchilar qobiliyati darajasini belgilovchi individual karta.

**A. Qobiliyatli o'quvchilarni tanlash, ularni ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga jalb etish va ularga ta'lim berishga oid ixtisoslashgan ta'lim muassasalari rahbarlari uchun mo'ljallangan so'rovnoma.**

So'rovnomadan quyidagi savollar o'rin oldi:

1. Siz rahbarlik qilayotgan ta'lim muassasasi qanday yo'nalishga ixtisoslashgan?

2. Ta'lim muassasiga o'quvchilarni qabul qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?

3. Ta'lim muassasasiga o'quvchilarni qabul qilish borasidagi xorijiy tajribalardan foydalanishga ahamiyat qaratiladimi?

4. Maktabgacha ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlikda qobiliyatli bolalarni tanlash va ularni ta'lim muassasasiga jalb etish yo'lidagi harakatlarni olib boriladimi?

5. Maktabda ta'lim olish davrida o'quvchilarning qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha qanday amaliy harakatlar tashkil etiladi?

6. Qobiliyatli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashda ijtimoiy tashkilotlarning yordamlaridan foydalaniladimi?

7. O'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish yo'lida oilalar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilganmi? Oilalarga qanday amaliy yordamlar ko'rsatiladi?

8. Muassasada o'quvchilar qobiliyatlarining yanada rivojlanishini o'rganish maqsadida maxsus tahlillar o'tkazilib boriladimi?

9. Ta'lim muassasasida tahsil olayotgan qaysi o'quvchilarning ijodiy yutuqlarini misol sifatida keltira olasiz?

10. Sizning fikringizcha, ixtisoslashgan ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishning qanday yo'llari mavjud?

**B. Ota-onalar uchun mo'ljallangan oilada bolalarning qobiliyatini aniqlashga oid anketa so'rovnoma** da esa shunday savollar o'z aksini topdi:

1. Farzandingizni alohida qobiliyatga ega deb hisoblaysizmi?

2. Farzandingizning qobiliyati qanday yo'nalishda ko'zga tashlanadi?

3. Farzandingizning qobiliyatini rivojlantirish uchun nimalarga e'tibor qaratasiz?

4. Oilada farzandingiz qobiliyatining yanada rivojlanishi uchun yetarli shart-sharoit mavjudmi?

5. Oilada farzandning qobiliyatini rivojlantirishga kim mas'ul bo'lishi zarur?

6. Maktabning faoliyati shaxsan Sizni qoniqtiradimi?

7. Siz qanday fikrdasiz, bolaning qobiliyatini rivojlantirish uchun oila va ta'lim muassasasi o'rtasida hamkorlik bo'lishi zarurmi?

8. Farzandingizning qobiliyatini rivojlantirish uchun ta'lim muassasasi yoki ijtimoiy tashkilotlar tomonidan qanday yordam olasiz?



9. Farzandingiz eng muhim yutuqlari sifatida nimalarni keltira olasiz?

10. Farzandingiz kelajagini qanday tasavvur qilasiz?

Qobiliyatli bolalarni tanlash va ularni ta'lim muassasasiga jalb etish maktabgacha ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshirilayotganligini; o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish yo'lida oilalar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularga doimiy ravishda metodik yordamlar ko'rsatilayotganligini; qobiliyatli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashda ijtimoiy tashkilotlarning yordamlaridan foydalanilayotganligini hamda maktabda o'quvchilar qobiliyatlarining yanada rivojlanishini o'rganish maqsadida maxsus psixologik-pedagogik tahlillar o'tkazilayotganligini bir ovozdan ta'kidlab o'tishgan.

Shuningdek, ularning javoblarida maktabda ta'lim olish davrida o'quvchilarning qobiliyatini rivojlantirish yo'lida quyidagi amaliy harakatlar tashkil etilayotganligiga ham urg'u berilgan: o'quvchilarning zarur o'quv jihozlari va adabiyotlar bilan ta'minlanganlar, ularning yakka tartibda shug'ullanishlari uchun hamda turli ko'rik-tanlovlar va sport musobaqalarida faol ishtirok etishlari uchun imkoniyat va sharoitlar yaratilgan.

Nazorat maktablarining rahbarlari esa bu fikrga deyarli zid javobni qaytarishgan. YA'ni, ularning ta'kidlashlaricha, ta'lim muassasasiga o'quvchilarni qabul qilish suhbat, ba'zi o'rinlarda esa sinov asosidagina qabul qilinadi. Suhbat uchun belgilangan savollar hamda sinov shartlari bilan tanishish esa ularning o'quvchilar qobiliyatini to'laqonli o'rganish imkoniyatiga esa emasligini ko'rsatdi. Savollar va shartlar juda oddiy bo'lib, o'quvchi shaxsi haqidagina ma'lumot olish imkonini beradi. Maktablarga u qadar qobiliyatli bo'lmagan, ko'pchilik tengdoshlaridan ajralib turadigan xususiyatga ega bo'lmagan bolalarning qabul qilinishi esa kutilgan samarani bera olmaydi va o'z-o'zidan ta'lim muassasasi faoliyatida samaradorlikka erishish yo'lida jiddiy to'siq bo'ladi.

Ularning javoblarida ta'kidlanishicha, o'quvchilarning fan olimpiadalari yoki turli yo'nalishlardagi musobaqa, ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etishlari uchun

shart-sharoit yaratish ham muassasa faoliyatida ustuvor o‘rin tutmaydi. Bu maktablarning o‘quvchilari ham bu kabi tadbirlarda ishtirok etsalar-da, asosiy maqsad ularda o‘z imkoniyatlarini keng namoyish etishdan iborat bo‘lmaydi, balki hisobotlarda shu jarayonlarda qatnashilganlikni bayon etish asosiy maqsad sanaladi. Bundan ko‘rinadiki, ta‘lim muassasalarining rahbarlarining o‘z faoliyatlariga yuzaki yondoshishlari, faoliyat samaradorligini oshirishning oliy maqsad sifatida tan olinmasligi o‘quvchilar tomonidan o‘quv va maxsus fanlarning yomon o‘zlashtirilishi, tuman, shahar, viloyat va respublika miqyosida Maktabning munosib o‘rin egallamasligiga zamin yaratmoqda.

Nazorat maktablarining rahbarlari esa shu mazmundagi savolga quyidagicha javob qaytarganlar: har ikki maktab bo‘yicha 11 nafargina o‘quvchi ona tili, matematika, o‘qish, tabiat va sport yo‘nalishlarida o‘ziga xos ko‘rsatkichlarga erishganlar. Suhbatlar chog‘ida ana shu o‘quvchilarning qobiliyatlarini yanada rivojlantirish yo‘lida qanday ishlar amalga oshirilayotganligi so‘ralganda esa, ta‘lim muassasalarining rahbarlari o‘quvchilarning yakka tartibda shug‘ullanishlari uchun sharoit yaratilganligini aytib o‘tishgan. Biroq, birgina yakka tartibda shug‘ullanishning o‘ziga o‘quvchilar qobiliyati darajasining oshishiga imkon bermasligi barchaga yaxshi ma‘lum. Buning uchun eng samarali yo‘l o‘z imkoniyatlarini doimiy ravishda sinovdan o‘tkazib turish sanaladi. Turli yo‘nalish va bosqichlardagi musobaqa hamda ko‘rik-tanlovlardagi ishtirok esa o‘quvchilarga shaxsiy imkoniyatlarini sinovdan o‘tkazishga yordam beradi.

Tajriba maktablarining rahbarlari tomonidan maktablar faoliyati samaradorligini yanada oshirishga oid quyidagi takliflar ilgari surilgan: maktabda psixologik xizmatning samarali tashkil etilishiga erishish; maktab psixologi lavozimiga tajribali, psixologik va pedagogik bilimlardan to‘la xabardor bo‘lgan, imkon qadar ta‘lim sohasida kamida besh yil faoliyat yuritgan mutaxassislarni ishga qabul qilish; qobiliyatli bolalarni aniqlash, ularning qobiliyati darajasini baholab va natijalarni uzluksiz tahlil qilib borish imkoniyatiga ega bo‘lgan qabul guruhini shakllantirish; Maktablar faoliyatini bir o‘quv yilida bir marta (tor

ko‘lamli), shuningdek, har besh yilda bir marta (keng ko‘lamli) monitoring natijalariga ko‘ra tahlil qilib borish.

Nazorat maktablarining rahbarlari esa maktablar faoliyati samaradorligini yanada oshirishga oid quyidagi takliflarni ilgari surishgan: o‘quvchilarning yakka tartibda shug‘ullanishlari uchun imkoniyat yaratish; ta‘lim muassasasiga malakali pedagoglarni jalb etish; ta‘lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish. Takliflar, albatta, Maktablar faoliyati samaradorligini oshirishd muhim ahamiyatga ega. Biroq, ta‘lim muassasasi faoliyatida samaradorlikka ko‘plab omillar yordamida erishiladi. Nazorat maktablarining direktorlari rahbar sifatida ana shularni ko‘ra olishlari maqsadga muvofiqdir. Jumladan, maktablarga faqat qobiliyatli bolalarnigina qabul qilish chora-tadbirlarini belgilash; qobiliyatli bolalarni aniqlashga oid ilg‘or metodikalarni ta‘lim muassasasi faoliyatiga jalb etish; pedagogik jamoa imkoniyatlarini o‘quvchilarning qobiliyatlari darajasini yanada oshirishga yo‘naltirish; ta‘lim jarayonini tabaqalashtirilgan (mualliflik) dasturlar(i) asosida tashkil etilishiga erishish va boshqalar kabilarga e‘tiborlarini qaratishlari zarur edi.

Tajriba maktablarida ta‘lim olayotgan o‘quvchilar ota-onalarining bir guruhi (51 nafari) o‘z javoblarida: oilalarida farzandlarining qobiliyatini yanada rivojlanishi uchun yetarlicha shart-sharoit mavjudligini; oilada farzandning qobiliyatini rivojlantirishga, eng avvalo, ota-ona, so‘ngra oilaning barcha a‘zolari mas‘ul bo‘lishlari zarurligini; maktablarning faoliyati ularni qoniqtirishini; oila va ta‘lim muassasasi o‘rtasida har tomonlama mustahkam hamkorlik o‘rnatilganligini, shuningdek, farzandlarning qobiliyatlarini rivojlantirishda ta‘lim muassasasi va ijtimoiy tashkilotlar tomonidan amaliy yordamlar ko‘rsatilayotganligini aytib o‘tishgan.

83 nafar ota-ona farzandlarining qobiliyatini yanada rivojlantirish uchun yakka tartibda shug‘ullanishi hamda turli tanlov va musobaqalarda ishtirok etishi uchun sharoit yaratishga e‘tibor qaratayotganliklarini ta‘kidlab o‘tgan bo‘lsalar, 5

nafar ota-onalar bu masalaga jiddiy e'tibor qarata olmayotganliklarini aytib o'tishgan.

41 nafar ota-onalar farzandlarining eng muhim yutuqlari sifatida tanlov (musobaqa)dagi muvaffaqiyatli ishtirok etayotganliklarini, 14 nafar maxsus fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirayotganliklarini e'tirof etib o'tganlar. Yakuniy bosqichda 3 nafar ota-ona farzandlari alohida muvaffaqiyatlarga erishmaganliklarini aytib o'tishgan.

Nazorat maktablarida tahsil olayotgan 12 nafar o'quvchining ota-onalarining o'z javoblarida ta'lim muassasasining faoliyatidan to'la qanoat hosil qilayotganliklarini aytib o'tishgan bo'lsalar, 34 nafar ota-ona maktab faoliyati ularni nisbatan qoniqtirayotganliklarini bildirishgan. Qolgan (88 nafar) ota-onalar esa ta'lim muassasasining faoliyati ular kutgandek darajada emasligini qayd etishgan.

Yakuniy bosqich tajriba sinov ishlari davrida tajriba maktablarida faoliyat olib borayotgan sinf rahbarlarining barchasi o'z javoblarida o'quvchilarning qobiliyatini rivojlantirish yo'lida quyidagi harakatlarni amalga oshirayotganliklarini aytib o'tishgan: ularni turli tanlov (musobaqa)larda faol qatnashishlarini ta'minlash; o'quvchilarning mustaqil va yakka tartibda shug'ullanishlarini nazorat qilib borish; o'quvchilarga psixologik yordam ko'rsatilishini ta'minlash; o'quvchilar duch kelayotgan qiyinchiliklarni birgalikda hal qilish; o'quvchilar qobiliyatining izchil rivojlanib borishini tahlil etish maqsadida psixologik test va metodikalardan samarali foydalanish; o'quvchilarning turli musobaqa va ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish.

Nazorat maktablarida ish olib borayotgan sinf rahbarlarining ham barchasi bu o'rinda keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etayotganliklarini; o'quvchilar bilan doimiy muloqotda bo'layotganliklarini ta'kidlab o'tishgan. Shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, yuqorida ko'rsatilgan harakatlar o'quvchi

shaxsining umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi, biroq, ularning qobiliyatini yanada rivojlantirishda o'ta darajada ahamiyatli bo'la olmaydi.

Tajriba maktablarida sinf rahbarlarining barchasi o'quvchilarning qobiliyatini rivojlantirish uchun oilalar bilan doimiy hamkorlikka erishishni maqsadga muvofiq deb topganlar va bu yo'ldagi hamkorlikning quyidagilarga asoslanishiga alohida urg'u berib o'tganlar: ota-onalarga o'quvchilarning qobiliyatini yanada rivojlantirishga oid metodik tavsiyalar berish; ularga pedagogik yordam ko'rsatish; yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni birgalikda hal qilish; ta'lim muassasasi va oilalarda o'quvchilar faoliyatiga talablarning bir xil qo'yilishiga erishish.

Nazorat maktablarida sinf rahbarlari bu o'rinda garchi oilalar bilan ta'lim o'rtasida o'quvchilarning qobiliyatini yanada rivojlantirish yo'lida doimiy hamkorlikka erishishni inkor etmasalarda, ana shu hamkorlikning qanday ko'rinishda bo'lishi haqida fikr bildirmaganlar. Bundan ko'rinadiki, sinf rahbarlari o'quvchilarning qobiliyatini rivojlantirishning oilalar bilan birgalikda amalga oshiriluvchi samarali choralari haqida to'la tasavvurga ega emaslar.

O'quvchilarning qobiliyatlarini yanada rivojlantirish maqsadida xorijiy mamlakatlar yoki yetakchi pedagoglarning tajribalaridan foydalanish ehtiyojiga ega ekanliklarini tajriba maktablarida deyarli barcha sinf rahbarlari (7 nafar) aytib o'tishgan bo'lishsa, nazorat maktablarida 8 nafar sinf rahbari bu o'rinda ham asoslovchi tajriba davrida qaytargan javoblarini yana bir bor takrorlaganlar. YA'ni, ular o'quvchilarning qobiliyatlarini yanada rivojlantirish tarafdori ekanliklarini, biroq, bu borada xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan maxsus pedagogik test va metodikalardan xabardor emasliklarini, shu sababli ulardan foydalanishga ehtiyoj sezmasliklarini aytib o'tishgan.

Maxsus metodikalardan qo'llanilgan tajriba maktablarida sinf rahbarlari ta'lim muassasasida yaratilgan shart-sharoitlarni o'quvchilarning qobiliyatini yanada rivojlantirishga to'la yordam beradi deb hisoblagan bo'lsalar, nazorat maktablarida sinf rahbarlari mavjud shart-sharoitlarning o'quvchilar qobiliyati

rivojlantirishga qisman (malakali o'qituvchilardan ta'lim olish kabi) yordam beradi deb topishgan.

Sinf rahbarlari (tajriba maktablarida) o'quvchilarning qobiliyatini yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo'llarni taklif etganlar: uzluksiz psixologik tahlillarni amalga oshirish; o'z ustilarida izlanishlari, yakka tartibda shug'ullanishlari uchun ota - onalar bilan hamkorlikda sharoit yaratish; ilg'or ish tajribalarini o'rganish; o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini yanada rivojlantirish uchun turli musobaqa va ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etishlari uchun yordam ko'rsatish.

Faoliyat dasturi va ishchi rejalarni ishlab chiqishda quyidagi yetti tamoyilning inobatga olinishi alohida ahamiyatga ega:

1) dolzarblik (dasturning ta'lim muassasasi uchun ahamiyatli bo'lgan muammolarni hal qilishga yo'naltirilganligi);

2) istiqbolni belgilay olish (dastur maqsadi hamda rejalashtirilgan faoliyatda ta'lim muassasasiga bugun va kelajakda qo'yiladigan talablar, shuningdek, sharoitlarining o'zgaruvchanligini aks ettira olganligi);

3) amaliylik (dasturning kutilayotgan va ro'yobga chiqarish imkoniyati bo'lgan maqsadlar, shuningdek, rejalashtirilayotgan maqsadlar bilan ularni ro'yobga chiqarish vositalari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlay olishi);

4) oqilonalik (dasturning maksimal darajada foydali natijalarga erishish imkonini beruvchi maqsadlar va ularni ro'yobga chiqarish vositalarini belgilay olishi);

5) yaxlitlik (dasturning qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lidagi xatti-harakatlarning oqilona bo'lishini, shuningdek, dasturda belgilangan faoliyatlar o'rtasidagi aloqalarning kelishilganligini ta'minlay olishi);

6) nazoratlilik (dasturning tugal va oraliq maqsadlar yoki kutilayotgan natijalarning real natijalarga muvofiqligini tekshirish usuliga ega bo'lishi);

7) og'ishlarga sezuvchanlik (dasturning bajarilayotgan real ishlar holati, shuningdek, dasturda nazarda tutilgan va erishish uchun xavf solishi mumkin bo'lgan og'ishlarni o'z vaqtida aniqlay olishi).

Maktablar faoliyatining samaradorligini oshirishga quyidagilar ta'sir etadi:

6) ta'lim muassasasi boshqaruvining to'g'ri yo'lga qo'yilishi;

7) ta'lim muassasasi rahbarining boshqaruvchilik mahoratiga ega bo'lishi;

8) ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etishga oid dastur va ishchi reja, ularning qay darajada mukammal ishlab chiqilganligi;

9) ixtisoslik yo'nalishiga ko'ra ta'lim muassasasiga iqtidorli o'quvchilarning to'g'ri tanlanishi, bu jarayonda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan o'tgan metodikalarning maqsadli qo'llanilishi;

10) iqtidorli o'quvchilarni tanlash va ularga ta'lim berishda samarali, yuqori natijalarni kafolatlaydigan yo'llardan foydalanish;

11) o'quvchilarning iqtidorlarini yanada rivojlantirishga oid ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va ularni ta'lim muassasasi faoliyatiga tadbiq etish;

12) ta'lim muassasasi faoliyatida iqtidorli o'quvchilarga ta'lim berish, ularning iqtidorini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

13) muassasa jamoasining yagona maqsad asosida hamjihatlikda faoliyatni tashkil eta olishlariga erishish.

O'quvchining qobiliyati to'g'risida fikr yuritilganda predmet va narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash holatidan kelib chiqqan holda u o'yin faoliyatida harakat qilishga qaror qiladi. U moddiy predmetlarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritayotgan jismlar, obyektlar, ash'yolar mohiyatini aks ettiruvchi harakat rejasiga yaqqol o'tish jarayoni amalga oshadi. Bola jismlarning modddiy shaklidan birdaniga ularning fikriy ko'rinishiga o'tishda ma'lum tayanch nuqtasiga nisbatan extiyoj sezadi. O'yin faoliyatida, ushbu jismlar qanadaydir alomatlarini aks ettiruvchi tariqasida emas, balki o'ziga xos bu tayanch predmetlar to'g'risida fikr yuritish uchun xizmat qiladi, shuningdek tayanch nuqtasi harakatning yaqqol predmet bilan bog'liq jihatlarini aks ettiradi.

Predmet bilan o‘yin harakatlarining takomillashuvchi harakat shakli, xususiyati, bosiqich kabilarni qisqartirish va umumiyashtirish hisobiga amalga oshiriladi. O‘yin harakatlarining qisqarishi va umumlashgan tarzda nomoyon bo‘lishi ularning aqliy ko‘rinishga ega bo‘lgan, mantiqan izchil, yig‘iq shaklga o‘tishning asosini tashkil qiladi.

Tajribalarning ko‘rsatishiga qaraganda, predmet nomini o‘zgartirish bilan bolada tafakkur va aql zakovat o‘rishini kutish ham mantiqa mutlaqo ziddir. Narsalarni qayta nomlash emas, balki o‘yin darajalari xususiyatini o‘zlashtirish aqliy qobiliyatga sezilarli darajada ta‘sir o‘tkaza oladi, degan xulosaga kelish mumkin. O‘yin faoliyatida ularga harakatning yangi ko‘rinishi, ya‘ni uning aqliy jixati nomoyon bo‘ladi, vaholanki, amaliy harakat moxiyatga mutlaqo qarama-qarshi tarzda vujudga kelishi ham mumkin.

O‘yin faoliyatini shakllantirish jarayonida o‘quvchini aqliy faoliyatining dastlabki kirinishi vujudga keladi. O‘quvchining aqliy qobiliyati taraqqiyotida yoki uning umumiy kamolotida iyinning muxim axamiyati kasb etishi xuddi mana shu dalil orqali o‘z ifodasini topadi. O‘yin o‘quvchida aqli harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. Rolli o‘yin alohida psixik jarayon uchun ahamiyatga molik bo‘lgan faoliyat bo‘lib xisoblanadi. O‘yin davomida o‘quvchilar har xil xavoyi xoxishlar, istaklar tug‘ila boradi. Bu narsa ketar tajriba materiallarida to‘la tasdiqlandi. Mazkur xoxish-istaklar boshqa predmetlarning tashqi alomatlarini uning o‘ziga rom etilganligi sababli vujudga keladi, vaholanki, bu narsa uning ixtiyoridan tashqari tengdoshlari ta‘siri ostida tug‘iladi. U tasodifiy xavoyi xoxishdan kechishga qaror qiladi va mazkur narsa turtki vazifasini o‘tovchi motik foydasiga xal qilinadi. Odatda har qanday rolli o‘yinlarini bajarishda tengdoshlar o‘rtasida vujudga keladigan nizolar, ixtiloflarni xal qilish motivatsion doirasida muxim ikki xususiyatni shakllantirishga olib keldi.

Ushbu faktor D.B.Elkonin kashf qilgan psixologik mexanizmga mutlaqo mos tushadi. Ana shu tariqa o‘quvchi shaxsida aqliy qobiliyat, shaxsiy va ijtimoiy burch xislari, umumlashtirish va mavxumlashtirishga nisbatan o‘tkir zexn tarkib



topadi, tenglik, demokratiya birdamlik tuyg‘ulari tug‘ila boshlaydi. Mazkur yuksak tuyg‘ularini amaliyotga joriy qilish jarayoni o‘quvchi shaxsida yuksak insoniy fazilatlarni qaror toptiradi. Shuning uchun o‘yin faoliyati ushbu yosh davr uchun yetakchi faoliyat deyilish bejiz emas. O‘qituvchi tarafidan o‘rgatiladigan mavzuni bu o‘yinlar yordamida o‘quvchilar yanada yaxshi tushunib yetadilar va o‘quvchilar o‘zlari sezmaganda o‘yinni o‘ynash jarayonida mavzuni tushunib va darsga berilib ketadilar.

O‘yinlarda diqqatga olinadigan xususiyatlar quyidagilardan iborat:

O‘yinni tanlashda o‘quvchilarni saviyasiga qarab guruxlarga ajratish va ularning yosh xususiyatlariga qarab o‘yin tanlash.

Vaqt mo‘ljali kunlik reja tayyorlayotgan chog‘ida o‘yin uchun ham vaqt ajratish kerak. Lekin darsimiz noan’anaviy bo‘lganda biz vaqtni chegaralay olmasdan maqsadga erishishimiz kerak.

Tayyorgarlik jarayonida o‘yinlar o‘rgatilishi va bajarilishi uchun materiallar tayyorlangan bo‘lishi lozim.

O‘quvchilarga sinfdoshlari bilan birgalikda shu onda yangi texnikaviy mavzularda dialoglar rejalashtirish imkonini berish kerak. Yozma baxslar

asosida dialoglarni guruxdagi barcha o‘quvchilar ishtirokida o‘tkazish mumkin. Bu usul o‘quvchilarning berilgan mavzu sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish sharoitini yaratadi, muomala madaniyatini o‘rgatadi, asoslash uchun asos xizmatini o‘tovchi ajoyib materialga ega bo‘ladi, o‘quvchilar mustaqil fikrlashga majbur bo‘ladi.

### **3-bob bo‘yicha xulosa**

O‘quvchilarning mustaqil fikrlarini rivojlantirish, ular o‘zlari bilgan so‘zlarni o‘rni bilan ishlata olishlarini ta‘minlash uchun xayotiy misollardan ham foydalangan holda munozara darsini tashkil qilish mumkin. Buning uchun o‘quvchilar yana guruxlarga bo‘linadi va o‘rtaga tashlangan bir xayotiy mavzu o‘zaro muhokama qilinadi. Har bir gurux o‘z fikrini bayon qiladi va oxirida fikrlar umumlashtirilib bir xulosaga kelinadi. Bu usulni ham yozma, ham og‘zaki holda

bajarish mumkin. Har ikkala xolat ham o‘quvchilarning dars jarayonida faolligini oshiradi. Yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati shundaki, ko‘proq dars mobaynida o‘quvchilarning mustaqil ishlashlarini ta‘minlash va ularga yetarli zamin yaratishdan iborat.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Kadrlar tayyorlash milliy dasturidan kelib chiqqan holda va jahon andozalariga moslashuv ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'qituvchi kadrlarning asosiy qismi yangi texnika va texnologiyani chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratilish darajasiga ega bo'lishi juda muhim. Buning uchun darsni tushuntirish jarayonida barchaga mo'ljallangan ammo uncha murakkab bo'lmagan usullarni qo'llash, ko'rgazmali qurollardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilish, ko'proq ta'lim oluvchilarni ijodiy ishlashga undash, ilg'or tajribalardan saboq berishning turli yo'llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy ishlash jarayonida ta'lim oluvchida mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Ijodiy fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida, o'quvchida tabiat hamda jamiyat qonunlarini, shuningdek, boshqa dunyoviy bilimlarni tizimlashtirish, ularni chuqur o'rganish, tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

O'quvchilar ijodiy ishini samarali va sifatli tashkil etish uchun pedagogning tashkiliy hamda uslubiy jihatdan tayyorgarligini, ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlariga ehtiyojini, ularning mustaqil ish topshiriqlarini muvaffaqiyatli bajarishlariga individual yondashuv talab etiladi. O'qitish jarayonini loyihalashtirishda o'quvchilarning fanlardan ijodiy ta'lim olish jarayonini tashkil etishni ta'minlovchi o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish talab etiladiki, uning bazasida o'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash imkoniyati bo'lsin. Ijodiy ishlash jarayonida ta'lim oluvchida ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi natijasida, unda jarayonlar hamda hodisalar, ob'ektlar haqida bilimlarni tizimlashtirish, ularni chuqur o'rganish va tegishli qarorlar qabul qilish, nazariy bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalari shakllanadi.

O'quvchilar ijodiy ishlarini tashkil etishda qo'yiladigan didaktik talablar hamda asosiy e'tiborni qaratish kerak bo'lgan jihatlar yoritib berildi, ijodiy ishlar shakllari, turlari keltirildi.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda faol ta'lim usullarini qo'llash imkoniyatlari o'rganilib, mohiyati yoritib berildi.

Ta'lim jarayonida ijodiy faollikni ta'minlashdan oldin o'quvchilarning bilim darajasi, uni o'zlashtirganligi hamda egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, ko'nikma va malakalarni tahlil qilish zaruriyati tug'iladi. Chunki egallangan bilimlarni har tomonlama tahlil qilmay turib, ta'lim oluvchilarning faol faoliyat ko'rsatish darajasi haqida fikr yuritib bo'lmaydi.

Malakaviy ishimiz natijalari quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatlarini berdi:

1. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish fanni o'zlashtirishning asosiy ajralmas qismi sifatida qaralishi hamda o'quvchilarning shaxsiy, kasbiy faoliyatlari bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilishi kerak.

2. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv adabiyotlarini, elektron ta'lim resurslarini yaratish hamda amalda joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi”, 2000. – 245 b.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda.- T.: O‘zbekiston, 2000. – 261 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.–T.: Ma'naviyat,2008.-173 b.
4. Abdullaeva Q. Kasbiy fanlar orqali o‘quvchilarda ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish // J.Pedagogik ta'lim.2004.-№6.-B.53-55.
5. Abidov O., Qurolov Q., Nishonboeva I. O‘quv adabiyotlarining o‘quvchilar faoliyatidagi o‘rni // J. Pedagogik ta'lim. 2006. - №2.-B.88-90.
6. Abdurahmonova Sh.A. Uzluksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnal. №1. Toshkent-2008 y. 9-10 b.
7. Avliyaqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008. 162 b.
8. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok. diss. T., 2003. 280 b.
9. Azizxadjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo.- T.: «Moliya», 2002.
10. Bato'shev A.S. Prakticheskaya pedagogika dlya nachinayuhego prepodovatelya. M:, 2003.
11. Bepalko V.P. Pedagogika i progressivno`e texnologii obucheniya. – M.: 1995.
12. Godfrua J. Psixologiya. Izd v t., tom 1 – M.Mir. 1992. str. 436.
13. Davidov V.V. Teorie razvivayuhego obucheniya. M:, 1996.
14. Jalolova D.F. Maxsus fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirish. Ped.fan.nom. diss. -T.: 2009, 170 b.
15. Ziyomhammadov B., Tojiev M. Pedagogik texnologiya. T:, 2009. 103 b.

16. Ibragimov R. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish, faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Diss. T., 2001.
17. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T., 2010. 141 b.
18. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T., 2008. 180 b.
19. Yo'ldoshev Q. Yangilanayotgan milliy pedagogikamizning etakchi xususiyatlari. Tafakkur, 1996, №4. 49-50 b.
20. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishni psixologik asoslari. Psix.f.d.i.d. olish uchun yozish dissertatsiya. –T., 2005.- 59 b.
21. Maxmutov M., Ibragimov G.I., Ushakov M.A. Pedagogicheskie texnologii, razvitie mo`shleniya uchahixsya. – Kazan, 1993. – 88 s.
22. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped.fan.dokt. ... diss. –T., 2007.-349 b.
23. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishni psixologik asoslari. Psix.f.d.i.d. olish uchun yozish dissertatsiya. –T., 2005.- 59 b.
24. Norpo'latova X. "O'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi" T.: "Kasb hunar" jurnali, 2010 yil №3.
25. Norpo'latova X. "Ta'limni faollashtiruvchi metodlar", Metodik qo'llanma TermDU ilmiy kengashida ko'rib chiqilib nashrga tavsiya qilingan, 2010 yil
26. Norpo'latova X. "Aktivnie metodi obucheniya, napravlennie na razvitie samostoyatel'nogo tvorcheskogo mishleniya studentov", Moskva.: "Molodoy uchyoniy" jurnal, 2012 yil №1
27. Ochilova N.M. O'quvchilarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish: Ped.fan.nom.diss. – Qarshi: PFNTI. 2006. 154 b.
28. Rashidov X., Xabibov X., Eldasheva G., Zakirov A. Kasbiy pedagogika. O'quv-uslubiy qo'llanma. T., 2007. 199 b.
29. Sodiqov U. Matematika darslarida ijodiy fikrlashni shakllantirish usullari //J. Pedagogik ta'lim. -2006.- №1. –B.27-28.

30. Farberman B.L. Progressivno`e pedagogicheskie texnologii. – Tashkent, 1999. – 84 s.

31. Farberman B.L. Peredovoe pedagogicheskie texnologii. – Tashkent, Fan., 2000.

32. Shakirova Ch.T. O`quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va dasturiy nazorat asosida o`qitish samaradorligini oshirish. Ped.fan.nom.diss. - Andijon, 2009, 167 b.

33. Shlimva A.A. Model upravleniya vospitatelnimi sistemami v profshkole Respublika Mariy El. // Professionalnoe obrazovanie №6. -2004. 12 s.

<http://www.udel.edu/pbl/>.

<http://www.materials.ac.uk/guides/casestudies.aep>.

<http://pedagogy.ru>.

[www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz).